



# VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ● 2024-yil 20-mart, №12 (3074)

*Olam nurga to'lsin sen bilan, Navro'z!*



## BAYRAMLAR YARASHAR OBOD O'LKAGA



IJTIMOIIY-SIYOSIIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

**BIZ**  
HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz  
t.me/mv\_vatanparvar\_uz

t.me/mudofaavazirligi  
facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi  
youtube.com/c/uzarmiya





## “...KI SEN HAM HUR TUG‘ULG‘ONSEN”



Bir donishmand: “Dunyoda eng go‘zal inson – ozod insondir”, – degan ekan. Tarixdan ma‘lumki, jamiki jang-u jadallar xalqning erkinligini, mamlakat mustaqilligini tortib olish yoki asrab qolish uchun olib borilgan. Odamning ham, xalqning ham qadr-u qiymati uning nechog‘lik ozod ekani bilan o‘lchanadi.

Ushbu jumlar ong-shuurimizga mehribon onalarimizning maftunkor allasi-yu oq suti, pok niyati bilan singgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Tongga qadar bedor beshik tebratgan, go‘dagini yer-u ko‘kka ishonmay katta qilayotgan ona “Bolan beliga belbog‘ yetmaydigan er yigit bo‘lsin, sher yigit bo‘lsin, alpqomat bo‘lsin, elning koriga yarasin, kindik qoni to‘kilgan joyni yomon ko‘zlardan asrasin, yurtning himoyachisi bo‘lsin”, deb niyat qiladi.

Haq gap. Bu so‘zlar ilk bor yod olgan she‘rlarimizda uchraydi. **Vatanni his qilish bolalik yillarining beg‘ubor sho‘xliklari – uyimiz, bog‘imiz, ko‘chamiz, mahallamiz g‘ururi uchun “kurashgan” paytlarimizdan boshlanadi.** Mahalla oqsoqollari: “Ota-onangni uyaltirib qo‘yima, mahalla sha‘niga dog‘ tushirma, qishlog‘imizdan

haligacha yomon odam chiqmagan, ko‘zingdan ko‘rinib turibdi, sendan ham yomonlik chiqmaydi”, deyishsa, ko‘nglimizda g‘urur uyg‘onib, o‘zimizni bolalikka xos katta-kichik qahramonliklarga tayyor qilib ko‘rsatardik. Bilmagan holda oilamizning, qishlog‘imizning, demakki Vatanimizning yosh himoyachilariga aylanan edik. Kattalar bizga jiddiy bir yumushni ishonib topshirsa, bundan faxrlanib, yeng shimarib ishga kirishardik.

Rivoyat qilishlaricha, “Xun davlatining asoschisi Mete xonga tatar hukmdori hujum qilish uchun bahona izlab, uning sevikli otini berishini talab qiladi. Bu ot shunchalik mashhur ediki, ming farsax yo‘lni qiynalmay chopa olardi. Mete vatandoshlarini urush musibatiga solmaslik uchun otini tatar xoqoniga berib yuboradi. Lekin tatar xoqoni bu bilan tinchimaydi. Keyingi safar u Metening eng suyuqli xotinini so‘raydi. Beklar qurultoyda urush e‘lon qilinishini talab qilsalar-da, Mete ularga “Men Vatanimni o‘z muhabbatim o‘g‘risiga

alishtirmayman”, deb sevgilisini ham dushmanlarga jo‘natib yuboradi.

Oradan ma‘lum vaqt o‘tib tatar xoqoni Xun o‘lkasining hosilsiz, ziroatsiz, o‘rmonsiz, ma‘dانسiz, aholisiz bir parcha qismini talab qiladi. Qurultoyga to‘planganlar qarovsiz, foydasiz yerni berib yuborish mumkinligini aytishadi, ammo oqil, dono, vatanparvar Mete: “Vatan bizning molimiz emasdir, mozorda yotgan otalarimizning, qiyomatga qadar tug‘iladigan avlodlarimizning bu yerda haqqi bordir. **Vatandan bir qarich bo‘lsin yer bermakka hech kimda huquq yo‘qdir.** Demak, urush etajakmiz”, – deydi va jangovar qo‘shini bilan hujum qiladi. Dushmanning ochko‘z xoqoni esa o‘z lashkari bilan qo‘rqib qochib ketadi. Shu tariqa Mete Vatan tuprog‘ini dushmanidan himoya qiladi, g‘animga ona yurtini toptatmaydi”...

Haqqi rost, **bu dunyoda Vatan ozodligi, hurligi, porloq kelajagidan-da qadrliroq ne‘mat bo‘lmaydi.** Har gal poytaxtimizdagi “Shahidlar xotirasi” xiyoboniga borganimda shonli o‘tmishimiz, tariximiz, Vatanimiz ozodligi uchun olib borilgan kurashlar, ajdodlarimizning jasorat va matonat saboqlari ko‘z oldimda gavdalangandek bo‘ladi.

Yigitlikning o‘t pallalarida tafakkur va qalb hurligining yorqin namunalarini yaratgan Qodiriy, Cho‘lpon, Usmon Nosir kabi ma‘rifatparvar bobolarimiz ham mana shu xalqning erki uchun kurashib, shu yo‘lda mardlarcha jon berishgan.

Abdulla Qodiriyning 1926-yil 16-iyun kuni Samarqandda sudda so‘zlagan quyidagi nutqidan ham anglab olsak bo‘ladiki, bu xalqning ozodligi, hurligi, kelajagi, dorilamon ertasini o‘sha davrlarda ko‘pchilik qabul qila olishmagan.

“So‘zim oxirida odil sudlardan so‘rayman: Garchi men turli bo‘hton, shaxsiyat va soxtalar bilan ham anglashilmovchiliklar orqasida, ikkinchi oqlanmaydurg‘on bo‘lib qoralandim. Loqaq ularning,

qoralovchi qora ko‘zlarning ko‘ngli uchun bo‘lsa ham, menga eng oliy bo‘lg‘on jazoni bera ko‘ringiz. Ko‘nglida shamsi g‘uboroti, teskarichilik maqsadi bo‘lmog‘on sodda, go‘l, vijdonlik yigitga bu qadar xo‘rlikdan o‘lim tansiqroqdir. Bir necha shaxslarning orzusicha, ma‘naviy o‘lim bilan o‘ldirildim. Endi jismoniy o‘lim menga qo‘rqinch emasdir. Odil sudlardan men shuni kutaman va shuni so‘rayman”.

**Vatan himoyachisi bo‘lish yanada sharafli burchdir. Kindik qoni to‘kilgan Vatanni, shu mustaqil yurtini ko‘z qorachig‘iday asrab-avaylash inson uchun go‘yo o‘z oilasini, sha‘nini, or-nomusini, imon-e‘tiqodini himoya qilish kabidir.** Bu yo‘lda fidoyi bo‘lgan kishi shahidlik maqomiga yetishi haqida bashoratlar bor.

Buyuk ajdodlarimiz yurt himoyasi yo‘lida sha‘ni, or-u nomusini, imonini o‘rtaga qo‘yib, yovga qarshi kurashgan. Ularning so‘zi, ahd-u paymonlari va qasamyodlari qilichdan-da o‘tkir, keskir bo‘lgan. **Zamonlar, makonlar o‘zgarsada, Vatanga muhabbat, imonga sadoqat mohiyati aslo o‘zgarmadi.**

Yurtimiz dovrug‘ini dunyoga taratgan buyuk ajdodlarimizdan, kubraviya ta‘limoti asoschisi Najmiddin Kubro haqiqiy Vatan himoyachisi qanday bo‘lishining yorqin misoli bo‘la oladi. Zamonasining yirik allomalaridan, minglab shogirdlarga ega bo‘lgan bu tariqat peshvosi mo‘g‘ullar bostirib kirganidan xabar topgach, birinchilardan bo‘lib Vatan himoyasiga otlanadi. Mo‘g‘ul hukmdorlari Najmiddin Kubroning xalq orasidagi obro‘-e‘tiborini ko‘rib, unga shaharni tashlab, o‘zi ixtiyor qilgan tarafga ketishni taklif qiladi. Vatanni o‘z jonidan ustun bilgan shayx, bosqinchilarga qarshi jangga kiradi va tug‘ ko‘tarib, lashkarni olg‘a chorlab borayotgan holatda shahid bo‘ladi. U zot tug‘ni shunchalar jon-jahdi bilan ushlagan ediki, bayroqni qo‘llarini kesibgina olishga muvaffaq bo‘lishadi. Tariximizda bunga o‘xshash misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin.

Ha, tarix shohid, kimlargadir bosh egish ajdodlarimizga xos xislat emas. Tug‘ilib o‘sgan tuprog‘ingda dushmanga qaram bo‘lib, ota-onadan, jigarlaridan voz kechib, “daho” bo‘lish, qo‘lga kishan kiyish “faxr” emas. Bu zaminning har qarich yeri, yilda to‘rt fasli o‘z vaqtida almashib turadigan go‘zal tabiati, **bashiklarida momolari alla aytib ulg‘aytirgan muqaddas tuprog‘i,** quyosh yanglig‘ shirmoy nonlar toblangan tandiriyu qo‘llarida ketmon, belbog‘ida bir burda noni bilan avaylab, serhosil yer – bobolardan qolgan omonatni asrash, kelajak avlodga beka-u ko‘st yetkazish ham farz, ham qarzimiz.

Zero atoqli shoir Cho‘lpon ta‘biri bilan aytganidek: “Kishan kiyima, bo‘yin egma, Ki sen ham hur tug‘ulg‘onsen”.

**Islom ASILBEKOV,**  
jurnalist





# Vatan!

Mening  
bor qismatim  
shu bir so'zda  
hal...



Ulug' ayyom – Navro'z ham tashrif buyurdi. Qorli boshlangan bo'lsa ham, kechalari izillagan bo'lsa ham uning jo'shqin shukuhi, taraddudi ko'ngillarga harorat baxsh etadi. Qalbimizga yaqin, g'oyat xalqona bayramning yana bir quvonchi bor. Ening ardoqli farzandi, qahramon shoirimiz Abdulla Oripov ham ayni shu kuni – 21 martda tug'ilgan.

Sevimli shoirimiz "O'zim haqimda" shunday yozadi: "Men 1941-yil 21-mart kuni Qashqadaryo viloyatining hozirgi Koson tumaniga qarashli Neko'z qishlog'ida tug'ilganman. Bolalik yillarim ko'hna Qo'ng'irtov etaklarida kechdi. Biroq u joyda dov-daraxt o'smas, chuchuk buloqlar yo'q, quduq suvi ham nihoyatda sho'r va nordondir. Faqat bahorning qisqa faslida ko'klam yomg'iridan bahra olgan baxmalday maysalar. Anvoyi giyohlar o'sadi. Lekin ularning umri ham bahorning o'zi yanglig' o'tkinchidir. Ichimlik suvini olti-yetti chaqirim naridan ko'zalarda tashib keltirar edik. Saratonning olov ufurib turgan kunlarida hayotimiz go'yo bir maromda kechar edi. Suv tashirdik, g'alla o'rardik. Urushdan keyingi yillarni yaxshi eslayman. Qishloq ko'chalarida qo'ltiqayoqda sobiq jangchilar o'qtin-o'qtin ko'zga tashlanar. Odamlarning kun kechirishi g'oyatda nochor edi. Biroq, biror oila qishlog'imizni tashlab boshqa joylarga ketib qolishmagan. Endi o'ylasam, hamma yerda ham qiyinchilik bir xil bo'lgan. Lekin bolalik yillarim faqatgina mungli xotiralardangina iborat emas. Hayratning ko'zlari katta bo'ladi, deydishadi. Ayniqsa, yoshlik chog'laringda olam ko'zingga boshqacharoq ko'rinadi, sirli tuyuladi. Bahor yomg'iridan keyingi sel toshqinlari, bepoyon adirlar ortidagi ufq, tog' etaklarida hazin xonish qilib kezgan mehmon turnalar, shuvoqzorlarda yayrab yurgan ohu uyurlari, va nihoyat, janubning tim qora osmonida qandildek osilib turgan ulkan-ulkan yulduzlar..."

Balki bu manzaralar hanuzgacha qaylardadir bordir. Lekin mening bolalik yillarim esa sira qaytmas bo'lib ortda qolib ketdi. Ana o'sha chog'larda men qo'limga qalam olib, birinchi she'rimni yoza boshlagan edim".

Uni shoir qilgan janubning tim qora osmonida qandildek osilib turgan ulkan-ulkan yulduzlar... sizlardan minnatdorman.

Bolalik, o'smirlik, yoshligim janub dalalarida kechdi. Ular mening eng yaxshi yillarimni o'g'irladilar. Sho'ro tuzumi men va tengdoshlarimni og'ir mehnatga bandi qilgan edi. Ammo ana shu qiyinchiliklar orasida yorug'liklar ham bor edi. Bular kitoblar, va yana sevimli shoirimiz, o'zini hech ko'rmaganimiz, kitoblari topilishi noyob hodisa bo'lgan Abdulla Oripov she'riyatini edi. O'sha yorug'lik ko'nglimizda poytaxtda o'qish istagini solgan, so'zga muhabbat uyg'otgan.

Yillar o'tib menga ham qahramon shoir bilan uchrashish nasib etdi, undan intervyu olish baxtiga muyassar bo'ldim. Endilar buni g'urur bilan xotirlayman.

Jurnalist sifatida undan so'raganlarimga javob oldim. Aytmoqchi bo'lgan gaplarim ham ko'p edi... Aytolmaganman, haddim sig'magan, ulug' shoir qarshisida qimtinib qolganman.

Shoirni ilk bor o'n olti yoshli Zulayho opam tanitgan. Hovlida uy yumushlari bilan yurib go'zal she'rlar o'qirdi. Unga taqlid qilar edim, sezmasdi. U shoirning oshig'i edi! Bugun uning sochlari qordek, etaklari nabiralar bilan to'lgan. Hamon she'rlar o'qiydi, Abdulla Oripov haqida so'z ketganida ko'zlarida huv o'sha olisda qolgan yoshlik yallig'lari ko'rinib ayta boshlaydi:

*Keksaygan hilolim, ey sen, to'lin oy,  
To hanzuz buzursan halovatimni.  
Yodimga solursan endi, hoynahoy,  
Sochlari oqargan muhabbatimni.  
Yillarim kechdilar yeldirim misol,  
G'unchalar bag'riga xayoday indim.  
Endi-chi, toliqib, horg'in va behol,  
G'orlarga bekingan  
shamolday tindim.*

Shoirning onasi Turdi Karvon qizi xotirasiga bag'ishlangan "Onajon" she'rini bilmagan bormi?! Aslida onasi xotirasi uchun yozgan she'rlari kam emas. "Onajon" ko'plarning ko'ngil dardiga esh keladi, menimcha.

Shoirning onasi 1966-yilda vafot etgan. Suhbatlaridan birida tunni onasi qabrini quchoqlab o'tkazganini, tuproqqa bosh qo'yib uxlab qolganini aytgan. Ota-onasi uni qattiq sevganlarini, shu sabab uning uchun ham judolik og'ir bo'lganini xotirlagan. Shu bois ham shoirning buyuk muhabbat bilan onaga bag'ishlangan she'rlari yuraklarimizni titratadi.

...Daladagi tollar tagidagi tushligimiz – qip-qizil tandir nonlar, yog'li suzma aralashirilgan pomidor, rayhonlar... Yuzlari oftobda kuygan qizlar, kelinchaklar. Toshkentdan yozgi ta'tilga kelgan talaba opamiz Gulchehra. "Onajon"ni shu qadar berilib o'qidiki, qo'shni qishloqdan tushgan kelinchak ko'zyoshlarini bilintirmaslik uchun yuzini ariq suviga chaydi. Saraton jazirasida chopiq chopishdan biroz tin olgan kezarimiz undan iltimos qilamiz: "Opajon, siz uchun ham ishlaymiz, yana o'qing..." U uzoq yalintirmaydi, yurak-yurakdan o'qiydi. U Toshkentga qaytganini eshitib, biroz o'ksinib qolamiz. Hademay paxta terimi ham boshlandi. Sentabrda harorat biroz qaytgan-u, baribir issiq-da. Jarlikka

qadar yetgan dala, yuzlarcha ayol-qiz egatlarga egilgan... Shu payt yuzlari issiqdan bo'g'riqqan Inoyat dugonamiz tergan paxtalari ustida o'tirib she'r o'qiy boshlaydi:

*Yigitlar maktubin bitganda qondan,  
Kelinlar firoqda chekkanda yohu,  
Uning ham panohi qaytmadi jangdan,  
O'n sakkiz yoshida beva qoldi u.*

Dala sassiz-sadosiz qoladi, nainki inson, qushlar ovozi ham tinib qolganek. Faqat she'r yangraydi, unga esh xo'lib jarlik pastida daryo shag'illaydi, vujudlar quloqqa aylanadi, misralar bir qatim nur kabi qalblarni zabt etadi.

Ha, zamondoshlari uni omadli shoir deganlarida haq edilar. She'rlari og'izdan og'izga ko'chib, sevim o'qiladigan, yuraklarni zabt etgan yana bir shoirni ko'rmadim, eshitmadim. Shoirilar ko'p, kuchli shoirilar bisyor biroq u yagona!

Men bularni sevimli shoirimizga aytmoqchi edim, aytolmadim. Endilar aqlim kirib, ayrim tuyg'ular haqida vaqtida aytish lozim ekan, deymen.

Abdulla Oripovning Vatan haqida so'nmas, otashin satrlari ko'p. Eng ko'p, eng xo'b yozganlardan biri. Davlat madhiyasining so'zlari uning qalamiga mansubligini aytmasam ham yaxshi bilasiz. Uni shoir qilgan oshyoni – Qashqadaryo haqida "O'zbekiston ovozi"da 1998-yil 29-sentabr, 1-3-oktabr sonlarida e'lon qilingan "Men nechun sevaman O'zbekistonni?!" deb nomlangan katta suhbatda shularni aytgan edi:

*"- Albatta, O'zbekiston – mening yagona Vatanim, lekin har qanday qush bir joyga uchganida uning ham o'z oshyoni bo'ladi. Hali siz aytganday, bolaligim mana shu yerda qolib ketgan. Onamning, ota-bobolarimning mozorlari shu joyda; shuning uchun ham bu joy ko'zimga olovday issiq ko'rinadi. Shu joydan bir quvonchli xabar eshitsam, agar, u yaxshilik daragi bo'lsa, hammadan avval men xursand bo'laman!*

*Qashqadaryo haqida gapiradigan bo'lsak, o'ziga xos bir diyor bu, boshqa hech bir joyga o'xshamaydigan jihatlar bor. O'zbekistonning barcha manzarasi bu yurtida mujassam. Osmono'par tog'lari ham bor, jazirama cho'llari ham, bunda turli iqlim, turli mintaqqa bor. Yilning to'rt faslini bu yerdan topish mumkin..."*

Yurtimizda bu kun keksa-yu yosh intiq kutgan xush kundir. Asli yurtimiz bo'ylab Navro'z sayillari boshlanganiga bir necha kun bo'ldi. Bu yerda qancha so'z aytasamda qahramon shoirimizdan o'tkazib bir narsa deya olmayman. Shu kunlar vasfi bitilgan qutlov barchamizga muborak bo'lsin:

"Modomiki, Navro'z kuni kishilar bir-birlariga eng ezgu tilaklarini izhor etishar ekan, modomiki, Navro'z tinchlik va osoyishtalik, muhabbat va tug'ilish ramzi ekan, men aziz yurtdoshlarimga ana shu niyatlarim barchasini tilayman. Navro'z ayyomingiz qutlug' bo'lsin, aziz do'stlar:

*Qizg'aldoq bargidek uchar dildan g'am,  
Toshqinlar kiradi qalbinga manim.  
Bahoring muborak bo'lsin ushbu dam,  
Mening O'zbekiston – dilbar Vatanim!*

**Inobat IBROHIMOVA,**  
"Vatanparvar"





# NAZORAT TEKSHIRUVI —

## IRODA TOBLANDI, ISHONCH ORTDI



Sharqiy harbiy okrug So'x garnizonidagi harbiy qismlarning birida navbatdagi nazorat tekshiruvini – sinov mashg'ulotlari bo'lib o'tdi. Mashg'ulotlar qo'mondonlik tomonidan berilgan signal bilan boshlandi. Unda harbiy xizmatchilarning ham nazariy, ham amaliy bilim va ko'nikmalariga yuqori qo'mondonlik bahosi berildi.



ravishda uni yengib o'tishga, bor bilim va mahoratini ishga solishga intiladi. Natijada nima bo'ladi? Insonning ma'lum bir vaziyat sabab orttirgan tajribasi boyib boradi, bilimi mustahkamlanadi, irodasi toblanadi, o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi.

Qolaversa, bunday mashg'ulotlar harbiy xizmat mas'uliyatini yanada oshirib, harbiy xizmatchilarning doimiy jangovar shayligi va tayyorgarligini sinovdan o'tkazishda muhim o'rin tutadi. So'xdagi nazorat tekshiruvlari ham ayni shu maqsadlarga xizmat qildi.

Qalin qor qoplagan dala-o'quv maydonida yurt o'g'lonlarining amaliy ko'nikmalari va merganlik mahoratlari ham sinovdan o'tdi. Real vaziyatga yaqinlashtirib o'tkazilgan mashg'ulotlar tungi sharoitlarda ham davom etdi.

Dastlab batalyon shaxsiy tarkibi dala-o'quv maydoniga marshni amalga oshirib, belgilangan vaqtda joylashuv joyiga yetib bordi. Bunda harbiy xizmatchilarning vaziyatdan kelib chiqib to'g'ri qaror qabul qilishi, shaxsiy tarkibning yo'nalish bo'ylab harakatlanishi baholab borildi.

Shundan so'ng asosiy sinov mashg'ulotlariga navbat berildi. Bunda batalyon shaxsiy tarkibining jismoniy, taktik, harbiy topografiya, havo-desant, o'qotar qurollardan otish tayyorgarliklari borasidagi imkoniyatlari ko'zdan kechirildi. Albatta, bu kabi sinov mashg'ulotlarida har bir yurt o'g'loni o'zining bor kuch-g'ayratini safarbar etgan holda kasbiy mahoratini namoyish etishga harakat qiladi.

Shu boisdan ham nazorat tekshiruvlarining tez-tez o'tkazilib turilishi faqat va faqat shaxsiy tarkib foydasiga ishlaydi. Chunki inson qay bir sinov qarshisida turar ekan, shartli



**Bekzod NORMURODOV,**  
Sharqiy harbiy okrug  
matbuot xizmati boshlig'i



## Islohot



## YANGI HARBIY TEXNIKALAR TANTANALI TOPSHIRILDI

Nukus garnizonida joylashgan harbiy qismlardan birining jangovar va harbiy texnikalarni saqlash parkida yangi harbiy texnikalarni tantanali tarzda foydalanishga topshirish marosimi o'tkazildi.

Mudofaa vazirligi qo'shinlarini harbiy texnika va qurol-aslahalar bilan butlash, ularni ta'mirlash va modernizatsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlar dasturiga muvofiq, 8 dona "KamAZ-43118" rusumli yuk avtomobili hamda "Isuzu" avtomobili bazasida yaratilgan "Mobil madaniyat markazi" endilikda Nukus garnizonidagi harbiy qismlaridagi bo'linmalarni yuqori jangovar shaylik darajasida ushlab turish, harbiy yuk va shaxsiy tarkibni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirishda qo'shimcha qulayliklar yaratish hamda harbiy xizmatchilar va aholining madaniy hordiq olishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Marosimda Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni general-mayor Farhodjon Shermatov hamda harbiy xizmatchilar ishtirok etdi. Tadbirda nutq so'zlaganlar bugungi kunda Yangi O'zbekiston armiyasiga bo'lgan e'tibor tufayli ko'plab harbiy va jangovar texnikalarni yangilash, bo'linmalarni zamonaviy qurol-aslahalar bilan butlash ishlari amalga oshirilganini e'tirof etdi. Buning evaziga harbiy bo'linmalarning jangovar shayligi va qudrati yuksalayotgani, armiyaning qiyofasi o'zgarib, qudrati ortib borayotganini ta'kidlashdi. Ushbu texnikalardan oqilona foydalanib, o'z

vaqtida texnik xizmatlarini ko'rsatish orqali doimiy soz va shay holatda saqlanishiga ishonch bildirishdi.

Ta'kidlash joizki, ushbu texnikalar mamlakatimizning shimoliy sarhadlari tabiati, relyefi hamda iqlimi uchun juda mos bo'lib, qumli cho'l sharoitida yo'tlanmas sifatida o'zini namoyon eta olgan. 11 tonnadan ortiq yuk ko'tarishi va turli notekis yo'llardan ravon harakatlana olishi avtomobilning harbiy soha uchun kerakli texnika ekanini isbotlaydi.

Shuningdek, "Isuzu" avtomobili bazasida yaratilgan "Mobil madaniyat markazi" ko'chma madaniy hordiq olish ishlarini tashkil etish uchun katta imkoniyatlar eshigini ochib, u bilan istalgan joyda vatanparvarlik ruhidagi tadbirlar, kino tomoshasi va konsert dasturlarini namoyish etishni ta'minlaydi.

Harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni harbiy texnikalarni qabul qilgan harbiy xizmatchilarga tantanali tarzda kalitlarni topshirib, ularni esdalik sovg'alar bilan taqdirladi. Texnikalarni qabul qilgan haydovchilar tarkibidagi harbiy xizmatchilar ushbu yuk avtomobillarini jangovar shay va soz holatda ushlab turishga, ularga o'z vaqtida texnik xizmat ko'rsatishga va'da berdi.



Marosim yakunida qo'mondon yangi harbiy texnikalarni ko'zdan kechirib, ularning imkoniyatlari bilan yaqindan tanishdi.

Shuningdek, shu kuni jangovar texnikalarni saqlash parkida cheklangan o'tish joylarida avtomobilni

boshqarish hamda temiryo'l platformasiga yuklangan texnikalarni mahkamlash bo'yicha yaratilgan o'quv maydonida mashg'ulotlar tashkil etildi.

**Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati**



XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakatining asosiy maqsadi jamiyat taraqqiyoti uchun lozim bo'lgan barcha sohalarida innovatsion g'oyalarni joriy qilish bo'ldi. Bu jarayon jadidlar nazarida Turkiston xalqining yashash tarzini o'zgartirishga, ularning ijtimoiy-ma'naviy ongini shakllantirishga imkon beradigan asosiy omil edi.

# JADIDLAR YETISHMAYAPTI, JADIDLAR...



Ma'lumki, so'nggi yillarda Uchinchi Renessans uchun tamal toshi qo'yilayotgan Yangi O'zbekistonda chor Rossiyasi mustamlakachiligi va mustabid sovet tuzumi davrida millat ravnaqi, yurt ozodligi uchun kurashgan ma'rifatparvar jadidlarning hayoti, faoliyati, ulardan qolgan boy ilmiy, adabiy, publitsistik merosni yanada chuqur o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda.

Turkistonda jadidchilik harakati va jadid namoyandalariga bag'ishlangan xalqaro hamda respublika miqyosidagi konferensiyalar, xotira kechalari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilmoqda.

Jumladan, ma'rifatparvar ajdodlarimiz xotirasiga yuksak ehtirom ko'rsatish maqsadida **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Qatag'on qurbonlari xotirasi" davlat muzeyida** Mudofaa vazirligi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi hamda vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashi bilan hamkorlikda **"Jadidlar merosi – kelajagimiz poydevori"** mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazilishi ham kutilgan tadbirlardan biri bo'ldi.

"Qatag'on qurbonlari xotirasi" davlat muzeyi direktori, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zosi, tarix fanlari doktori, professor Baxtiyor Hasanov, muzey bosh ilmiy xodimi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Bahrom Irzayev, muzey yetakchi ilmiy xodimi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Muslim Alijonovning mavzuga oid ma'ruzalari, qatag'on qurbonlariga bag'ishlangan "Xiyobon" qo'shig'i (*musiqali klip*) namoyishi harbiy xizmatchilarda katta taassurot qoldirdi.

Professor Baxtiyor Hasanov o'z ma'ruzasida jadidlar va ularning ilmiy merosi haqida so'zlar ekan, jumladan shunday dedi:

– 2023-yilning 22-dekabr kuni o'tkazilgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ma'ruzasini tinglarkanmiz, ko'nglimizni bezovta qilib, uyqumizni qochirgan ko'p achchiq savollarga javob topdik. Davlatimiz rahbari jadid bobolarimiz kurashgan illatlar bugun ham taraqqiyotimiz

oyog'iga tushov bo'layotganligini ta'kidlab, najot faqat ilm-ma'rifatda, ta'lim-tarbiyada ekaniga yana bir bor e'tiborimizni qaratdi.

Tadbir davomida harbiy xizmatchilar uchun "Qatag'on qurbonlari xotirasi" davlat muzeyi va "Shahidlar xotirasi" maydoni bo'ylab ekskursiya tashkil etildi. Darvoqe, muzeyni aylanar ekansiz, **jadid bobolarimizning asar va darsliklari, yuzlab qatag'on qilingan millatdoshlarimizning ayanchli taqdirleri ruhiyatingizni so'roqlay boshlaydi.** Noyob buyumlar va kitoblardan anglaysizki, jadidlar tanlagan yo'l – ilm-ma'rifat yo'li chindan ham o'sha davrda qurolli hujumdan-da kuchli darajadagi harakatga aylanib ulgurandi. Chunki qurol bilan ma'lum guruhlar, to'dalar birlashishi mumkin, ammo ommaviy ilm bilan **xalqlar o'zligini taniydi, bir tan-u bir jon bo'lib Vatan himoyasiga chiqadi.**

Afsuski, dushman ham anoyi emas edi. Ilm egalarining, ma'rifatli yo'l boshchilarning tunda uylaridan olib ketilishi, ularga oqlab bo'lmas jinoyatlarning yuklanishi, sud hukmidan oldin otib tashlanishi – bularning bari manfur mexanizmning puxta o'ylangan hiylasi edi.

Quloqlarimizga bot-bot chalinayotgan, **"Jadidlar yetishmayapti, jadidlar" bongi ham ich-ichimizdan uyg'onishga, ilm olishga, yurtni yuksaltirishga chorlayotgani ayni haqiqatdir.** Ushbu tadbir harbiy xizmatchilarimizga ana shunday muhim signallarni teran anglatishi, ularni millat chinakamiga millat fidoyilariga aylanishiga undashi bilan ham muhimdir.

Uchrashuv so'ngida tarixiy hujjat – jadid bobolarimizning boy merosini harbiy xizmatchilarimiz ongiga chuqurroq singdirishni ifodalovchi memorandum imzolandi.

**Kapitan Bobur ELMURODOV,**  
**"Vatanparvar"**





## Mulohaza

Targ'ibot tizimi davomli faoliyat orqali – jamiyat, insonlar qatlami yoki muayyan inson ong osti tafakkuriga ta'sir ko'rsatish (*manipulyatsiya qilish*) orqali ijtimoiy faollikka undash jarayoni hisoblanadi. Bugungi kunda mafkuraviy xurujlar asosan ijtimoiy tarmoqlar va reklamalarda ochiq hamda yashirin (*psixologik*) ravishda olib borilmoqda. Ularning eng xavfli tomoni milliy qadriyatlardan uzoqlashtirish va milliy g'urur tuyg'usidan mahrum qilishga qaratilganidir. Aksariyat aholi, jumladan yoshlar ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib qolgani sir emas. Mazkur omil esa yoshlar tarbiyasiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

# MILLIY

## KONTENTDA QADRIYATLAR

### TARG'IBOTI

“Ma'naviyat lug'ati”da milliy an'analar tushunchasiga “millat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan tushunchalar, belgilar, xususiyatlar, qadriyatlar, faoliyat turlari, odatlar va xislatlarning avlodlardan avlodga o'tishi hamda meros bo'lib qolishini ifodalovchi tushuncha”, deya ta'rif berilgan. “Milliy urf-odatlar” tushunchasi esa “millatning turmush tarziga singib ketgan, uning shakllanishi va rivojiga xizmat qiladigan ijtimoiy-madaniy hayotida o'z aksini topgan, doim takrorlanib turadigan xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va ko'nikmalar ko'rinishidir”, deya izohlangan.

Qadriyat so'zi inson va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladi. **Milliy qadriyatlar millatning asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan noyob xazinasi**dir. Bugun yoshlarni ommaviy madaniyat changalidan asrash lozim. Ular milliy qadriyatlarni kelajak avlodga yetkazuvchi ko'prik bo'lishi kerak. Chunki milliy qadriyatlar xuddi til kabi millatning o'ziga xos xususiyatlarini ifoda etadi.

Bugun ommaviy madaniyatga qarshi qanday kurashish va milliy qadriyatlarni qanday qilib kengroq targ'ib etish mumkin? Raqamli targ'ibot eng samarali usul hisoblanadi. Raqamli targ'ibot bu biron-bir g'oya va mafkurani targ'ib qilish, uni ommaga singdirish uchun internet va kompyuterlar, mobil telefonlar va internetga ulanadigan boshqa raqamli texnologiyalardan foydalanadigan targ'ibot tizimidir. Bunda har bir ijtimoiy tarmoqning xususiyatidan kelib chiqib, targ'ibot materiallari tayyorlanadi: **Telegram** – matnli, audio, foto va video materiallar, so'rovnomalari; **Facebook** – matnli, audio, foto va video materiallar, so'rovnomalari; **Instagram** – foto va video materiallar; **Tik-tok** – video materiallar; **Twitter** – qisqa matn ko'rinishidagi, foto va video mahsulotlar.

Keyingi masala – raqamli targ'ibot keng ta'sir ko'rsatishi uchun aholida internetdan foydalanish madaniyati kamida o'rta darajada bo'lishi zarur hisoblanadi. Aholining internetdan foydalanish madaniyatini oshirish uchun nima qilish kerak? Aholining axborot olish, internetdan foydalanish madaniyatini paydo qilish uchun media savodxonligini oshirish zarur. **Media**

**savodxonlik va axborot xavfsizligi muhim omillar hisoblanadi.** Shuningdek, faktcheking, ya'ni ma'lumotning to'g'ri yoki noto'g'riligini tekshira olish ko'nikmasini shakllantirish lozim. Bugun matn, video, foto va boshqa turli ko'rinishdagi feyk axborotlardan saqlanish asosiy media xavfsizlik sharti hisoblanadi. Aholini axborotni ishonchli manbalardan olishga o'rgatish lozim.

Shu o'rinda tarixiy qahramon masalasi ham milliy g'ururni shakllantirishda muhim jihat hisoblanadi. **Xalq o'zi havas qiladigan, yuksak namuna deb biladigan ma'naviy idealini ajdodlari misolida ko'rishi milliy g'ururning negizi hisoblanadi.** Raqamli targ'ibotda tarixiy qahramonlardan ko'proq foydalanish milliy qadriyatlarni ko'proq yoyishda va yoshlar ongida millatparvarlikni kuchaytirishda muhim vosita bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqlarda fikr aytish, turli foto-video yuklash, turli bachkanaliklar ko'rsatib ommaning e'tiborida bo'lish orqali o'zini aqlli qilib ko'rsatish zamonamiz har bir kishisiga xos. Ayniqsa, yoshlarimiz bu borada ancha faol. Ular sayyoramizning mashhur insonlari – film qahramoni, futbolchi, shoir, fizik, faylasuf va boshqa kishilarga taqlid qiladi, iqtiboslarni keltiradi. O'ziga kumir, ideal deb biladi. Kumirlarining suratini muntazam virtual olamda joylab borishga intiladi. Bu tabiiy hol. Inson mudom mutaassir etgan, hayratlantirgan shaxslariga intilib yashaydi.

Afsuski, bugun ijtimoiy tarmoqda Beruniy yoki Forobiy asarlaridan iqtibos keltirgan, ilmiy qarashlarini muhokama qilgan yoshlarni kamdan kam uchratish mumkin. Xo'sh, kim aybdor? Do'ppini yechib, o'ylab ko'rsak, ko'p yillar buyuk ajdodlarimiz hayoti va ijodini yetarli tanishtirish o'rniga yoshlar qulog'iga faqat nom quyib kelibmiz. Yetmaganiga, yoshlar otabobolarimizni tanimaydi, bilmaydi, deb o'pkalaymiz. Millat o'z qahramonlarini tanimas ekan, hech qachon qudratli bo'lolmaydi. Odamlarga doim qahramon kerak. **“Haqiqiy qahramonlik qo'lda emas, miya va yurakda”,** degan edi amerikalik adib Herman Melvill. Shu sababli milliy tafakkurni uyg'otish, turli “parastlik” sindromlardan xalos bo'lish uchun tariximiz yorqin sahifalarini jamiyatga yuqtirishga ehtiyojimiz bor. **Buyuk allomalar, mumtoz shoirlar, dovyurak sarkarda-yu, ma'rifatli hukmdorlarimizni xalqimizga qayta**

**tanitishimiz lozim.** Bu esa ziyolilarimiz zimmasidagi ma'naviy burch hisoblanadi.

Zamonaviy dunyoda kino ijodkorlar o'z ishining hadisini shunday olganki, bir zamonlar qabila sardori bo'lgan, nasl-nasabining tayini bo'lmagan kimsani ham super qahramonga aylantirib yuboradi. Tabiiyki, mazkur qahramon yer yuzini qutqaruvchi kuch-qudrat sohibi o'laroq millionlab o'smirlar qalbidan joy oladi. Shu bilan birga jahon kino san'ati ahli ilm-tafakkur namoyandalarini ham unutgan emas. Google dasturida biror tarixiy shaxsni qidirsangiz, hech bo'lmasa, u haqida bitta kinoasar chiqib keladi. Afsuski, biz bu borada maqtana olmaymiz. Buyuk ajdodlarimiz haqida o'tgan asrda ko'p tarixiy romanlar yozilgan, filmlar ishlangan, spektakllar yaratilgan. Biroq tarixiy-biografik janrdagi bu asarlar xuddi Siam egizaklari kabi ikki tomchi suvday o'xshash. Asarlarda davr va ijtimoiy muhit bir-biriga o'xshashi mumkindir, ammo har bir ajdodimizning o'z taqdiri, ijod yo'li va g'oyasi bor. Bugun bir qolipdagi zo'rma-zo'raki, badiiy talqini bitta o'zanga qamalgan, birovi birovinini takrorlaydigan qahramonlar yaratish urfdan qolgan.

Shu paytgacha o'zbek adabiyotida, kinosida yaratilgan ijod mahsullarini yo'qqa chiqarish adolatsizlik bo'ladi, albatta. O'tgan asrda “Alisher Navoiy”, “Abu Rayhon Beruniy”, “Ulug'bek yulduzi”, “Abu Ali ibn Sino”, “Buyuk Amir Temur”, yaqin yillarda “Ibrat”, “Avloniy”, “Qo'qon shamoli”, “Imom Abu Iso Termiziy” kabi tarixiy mavzudagi qator filmlar yaratildi. Turk ijodkorlari bilan hamkorlikda “Men kim Jaloliddin” tarixiy seriali suratga olindi. Lekin bu filmlar kutilganidek natija bergani yo'q. Adabiyot inson qalbini ifoda etsa ham, odamzod o'qigani yoki eshitganidan ko'ra ko'rganiga ko'proq ishonadi. Lekin kinoning asosida baribir adabiyot bo'lishi kerak. Tarixiy filmlar, albatta, badiiy poydevori baquvvat asarga qurilishi lozim. Ajdodlarimiz tarjimai holini bitta formulaga solib, asardan asarga “copy-paste” qilish bilan maqsadga erishish qiyin. Bir xillikdan qochish, tasavvurlarimizni birsidra tozalab olish, **ajdodlarimiz bilan oramizni yaqinlashtirish hozirgi o'zbek adabiyoti va kinosining muhim vazifasi,** deb o'ylayman.

Haqiqiy vatanparvarlik qasidasi o'laroq tilga olinadigan Mel Gibsonning “Sheryurak” badiiy filmi hammamiz yaxshi bilamiz. Shotlandiya va Angliya o'rtasidagi urushlarda afsonaga aylangan Uilyam Uollesning hayotidan ta'sirlanib suratga olingan mazkur filmda ko'p epizodlar to'qima bo'lsa ham, shotland o'g'lonlarining urushdagi matonati, vatanparvarligi va jasorati hanuzgacha millionlab qablarni to'lqinlantirib keladi. Aslida mazkur film XV asrda Blaynd Garri degan so'qir shoirming Uolles haqida yozgan dostoni asosida yaratilgan. Film ijodkorlari esa kichik personajni butun dunyoga vatanparvarlik timsoli sifatida taqdim eta bildi. Nima, bizning tariximizda Uolleslar yashamaganmi? O'tmishimizning har bir sahifasida bir

emas, ikki emas, o'nlab Uolleslar bor-ku, axir! Shunday ekan, nega Spitamen yoki To'maris hayotini tomoshabinga ko'rsata olmaymiz? O'n besh yillarcha ilgari teleekranlarimiz koreys tarixiy seriallar bilan to'lib-toshgan edi. Oqibatda bolalarimiz koreys qahramonlari bo'lishni orzu qilib boshladi. **O'quvchilar Shiroq, To'maris, Spitamen, Mahmud Torobiy, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro kabi buyuk vatanparvar bobolarimiz haqida faqat darsliklarda o'qishi yetarli emas.**

Dunyoda motivlar tugamagan, lekin syujet va g'oya taqchilligi bor. Shunga qaramay, yaqin yigirma yilda qanchadan qancha super qahramonlar o'ylab topilmadi, deysiz? O'rgimchak odam, Chumoli odam, Ko'rshapalak odam (*Betmen*), Terminator, Temir odam... Sanayversak, ro'yxatning adog'i olis. Eng qizig'i, ular o'ylab topilgan, bor-yo'g'i fantaziya mahsuli, xolos. Bizning tariximiz va folklorimiz esa Hollivudni 10-15 yil tarixiy qahramon bilan ta'minlashga yetib ortadi. Rus yozuvchisi Sigizmund Krjijanovskiyning bir gapi bor:

**“Vatan tarixini yozishingiz uchun ikkita narsa bo'lishi kerak: ham Vatan, ham tarix.**

O'tmishingizni sevishingiz, qadimgi zamonning eng yomon faktlaridan ham yaxshilik izlashni o'rganishingiz kerak. Tarix haqida badiiy asar yozishdan oldin mamlakatingiz tarixini bilishingiz, to'liq material to'plashingiz va shundan keyingina tarixiy asarda ketma-ket bo'lib o'tadigan voqealarni ko'rib chiqishingiz mumkin”. Raqamli targ'ibotda aynan tarixiy qahramonlardan foydalanish samarali vosita, deb hisoblaymiz.

Milliy kontentlar media mahsulotlari sayozlashuvining ijtimoiy-ma'naviy muhitga salbiy ta'siri (*bu asosan, TV bilan bog'liq: filmlar, kliplar, seriallar*) yoshlarda “ideallar almashuvi” muammosi (*yoshlar kimga qarab harakat qilayotgani, kimdan namuna olayotganini kuzatsak, bu ahvol achinarli, saviyasiz vaynerlar va tiktokerlar yosh qatlamning idealiga aylanib bormoqda*) kabilarni bartaraf etish, jamiyatga nisbatan daxldorlik hissi, fuqarolik pozitsiyasi yo'qligi; loqaydlikni yo'qotish, vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otish uchun zarur. **Yoshlar ongida milliy qadriyatlar eskilik emas, aksincha har qanday yangilikni milliy o'zlikka moslashtirishda ma'naviy tozartiruv vositasidir,** degan tushunchani shakllantirishimiz lozim.

**Kamoliddin TO'RAYEV,**  
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar  
instituti ilmiy xodimi







# Daraxtlar nishonlar tug'ilgan kunin...

- Nega bashang kiyinishar daraxtlar ko'klam chog'i,  
Ko'z-ko'z qilib hammaga taqinchoq gullarini?  
- Ular erta bahorda dimog'lari chog' bo'lib,  
Nishonlashar o'zlarin tug'ilgan kunlarini!

**Bu KUN va TUN tenglashgan NAVRO'Zdan boshlanadi. Navro'z qadimiy bayram. Sharq xalqlari bu bayramni qahratonning qahridan mardona o'tgan va yuzini quyoshga tutgan boychechak yanglig' orziqib kutganlar. Lekin baribir Navro'zni eng avval cho'ponlar qarshilaydi: qo'y-qo'zi, echki-ulog'ining tuyog'i ortadi. Bir hovurda hovliqqan tuproq alvon lolalarini bahorga yoyadi.**

- Navro'z kunlarida qishlog'imiz yashnab ketadi, - deydi yaypanlik Munisaxon. - Navro'z rizqu ro'z bayrami ekan. Bu bayram bilan ijod ahlini va shuning barobarida barcha yurtdoshlarimizni shunday muborakbod etaman:

*Sizni qancha qutlasam kamlik qiladi,  
Siz-la qancha shodlansam, ko'rinadi oz.  
Shuning uchun ikki bayt she'r hadya qilib,  
Tuganmas baxt tilasam, menga juda soz!*

Yurtimizda Navro'z kunida ko'cha-ko'ylar, hovli sahni, maktab va sinfxonalarni tozalash, bahorga sarishtalik bilan farishtalik baxsh etish insoniy ehtiyojga aylangan. Ko'z tushgan joylar gul bo'lsin, deb turli mevali va manzarali daraxtlar, gul-u chechaklar ekiladi.

Ha, yo'llar, uzoq-yaqinlar guldek kulsin. Buning uchun nihol o'tqazish juda xosiyatli. **"To'kilsa manglay tering, beiz qoldirmas yering"**, deganlaridek, har bir o'quvchi bu borada o'rnak bo'lgani yaxshi. Buning uddasidan chiqmaganlar sinfga bo'linib, guruh-guruh bo'lib daraxt ekishga ham chog'lanadi. "Men ekkan chinor", "biz ekkan olma", "bizning o'rik..." degan kattalarning gap-so'zlari sizni his-hayajonsiz qoldirmaydi. Binoni qurish qiyin, buzish oson. Bir niholni daraxt qilib o'stirish ham mushkul ish. Bu eng avvalo pok niyatni, beg'ubor qalbni talab qiladi.

Shuningdek, xastalar holidan xabar olish, qarindosh-urug'lar bilan diydorlashish, marhumlarni yod etish, Navro'z taomlari sumalak, ko'k somsa-yu chuchvaralarni ilinishdan ham ma'lumki, **bu bayram mehr-oqibat ayyomi hamdir!** Haqiqiy xalq sayliga aylangan Navro'z yil bo'yi odamlarga quvonch ulashish uchun ulug'likka,

shodlikka, aql va tajribaga dugona bo'lib, maktab va bog'chalar, gavjum ko'chalar, mahalla va xonadonlarda kezib yuribdi. Malaklar shopirgan sumalakning totli isi tutgan olamni. Qozon tepasida to'planib kemptigiga butunlik tilayotgan keksa-yu yoshning niyati ham ayon: kundan kunga yosharayotgan, o'ziga, o'zligiga ega insonlarning xonadonidan qut-baraka arimasin. Dasturxon atrofida bo'shliq bo'lmasin.

*Bir g'arib ko'nglini qila olsang shod,  
Yaxshidir yer yuzin qilgandan obod.  
Lutfing-la bir dilni qul qila olsang,  
Afzaldir yuz qulni qilgandan ozod.*

Sirdaryolik Rohilaxon o'z maktubida "Navro'z xalqimizning yaratuvchanligini, milliy san'atini o'zida saqlagan muborak va muqaddas bayramdir. Bu kun quyosh har bir xonadonga kirib kelib yog'dusini baravar ulashadi. Ana shu pallada dillardagi barcha tugunlar ochilsin, xonadonlarda xursandchilik hukm sursin. **Dehqonchilik bayrami, do'stlik bayrami, milliylik bayrami Navro'zni asrab-avaylash tuyg'usi hammaning qonida jo'sh ursin**", deb yozibdi.

Qadriyatlarimizga qaytmog'imiz, o'z so'zimizni aytmog'imiz payti keldi. Bobolarimiz har kunning Navro'z bo'lsin, deb bejiz aytmaganlar. Navro'z kuni arazlar yarashlar bilan almashadi, nizolar barham topadi. Qor ko'rpadan bo'shangan kengliklarda o'ynaladigan ko'z bog'lash, happak, quvlashmachoqda ham insoniylikka shukrona, insongarchilikka ishora bor. Xo'roz, qo'chqor urishtirishlar-u askiya-payrovlarda ham hayotga muhabbat yashiringan. **Tinchlik barqaror bo'lgan yurtga bayram yarashadi. Halovatli elning bahori ham, kuzi-yu qishi ham - qo'yingki har bir kuni fayzli, tarovatli bo'ladi.** Totuvlik, osudalik bo'lgan joydan balo-qazolar yiroq yuradi.

Mustaqillik sabab, mushaklar otilgan, osmonga havo sharlari ko'tarilgan, shahar va qishloqlarda yangragan kamay va surnay sadolari yil bo'yi yodimizda, ko'z oldimizda. O'sha kayfiyat har kunimizni Navro'z aylab, o'tayotgan vaqtdan unumli foydalanishimizga yordam beryapti. Mana shunday **dorulamon kunlarga yetganimizga, mustaqil va obod yurtimizda tinch-xotirjam yashayotganimizga ming qulluq!**

*Zamin beshigini tebratar ko'klam,  
Hayotbaxsh qo'shig'in kuylaydi bahor,  
Navro'z tashrifiga intizor bu dam,  
Borliq sepin yoygan kelinchak misol.  
Sirlig-u sehrli faslimsan, Navro'z,  
Dunyolarga bo'ylar faxrimsan, Navro'z!*

Ta'kidlash joizki, uch ming yildan oshiq tarixga ega bo'lgan **Navro'z milliy ma'naviyatimiz rivojidadagi eng muhim shodiyona sanaladi.** Bu kunda yurtimizning har bir go'shasida bahoriy taomlar-u turli milliy o'yinlarga alohida urg'u beriladi. Xususan, milliy taomlarimizdan sumalak, halim, ko'ksomsa, ko'kchuchvara bayram dasturxonining ko'rkiga aylanadi. Ayniqsa, sumalak bazmlarining o'zgacha gashti bor.

Sumalak tarixi qadimga borib taqaladi. "Sumalak" atamasi - "sharbat uchun qilingan", "undirilgan arpa" ma'nosini anglatuvchi qadimgi turkiy so'z bo'lmish "suma"dan kelib chiqqan. Manbalarda qayd qilinishicha, qadimgi ajdodlarimiz erta ko'klamda kelayotgan yilning barakali bo'lishini niyat qilib, muqaddas o'simliklardan birini tuyib, shirasini olganlar va marosim amallarini bajarish chog'ida uni tanovul etganlar.

Ko'k somsada inson organizmiga eng kerakli quvvat beruvchi vitaminlar mavjud, deya bejiz aytishmaydi. Shuning uchun qadim-qadimdan buvi-yu momolarimiz ko'klamda bu taomni tez-tez qilishgan.

Halim ham bug'doy va mol go'shtidan tayyorlanadigan qadimiy milliy taomlarimizdan biri. Halim tayyorlash uchun qayroqi bug'doy biroz namlanib, yog'ochda tuyilib, sovuq suvda yuviladi, so'ng 5-6 soat davomida iliq suvda ivitiladi. O'simlik yog'i qizdirilgan qozonda lo'nda-lo'nda to'g'ralgan go'sht qovuriladi, so'ng tayyorlangan bug'doy solinib, darhol suv quyiladi va 2-3 soat davomida past olovda qaynatiladi. Ming dardga davo bo'lgan bu milliy taomimiz Navro'z dasturxoniga o'zgacha fayz bag'ishlaydi.

**Navro'z bayramida yana milliy o'yinlarimiz bo'y ko'rsatadi.** Ya'ni bu shodiyona "Kurash", "Ko'pkari", "Arqon tortish", "Chillak", "Xo'roz urishtirish", "Oq terakmi, ko'k terak", "Beshtosh", "Tez aytish", "Kim oladi-yo, shuginani-yo?" kabi quvnoq o'yinlar bilan yanada gashtli va unutilmas o'tadi.

Muhimi shundaki, bu o'yinlarning hech biri shunchaki ermak yoki vaqt o'tkazish uchun o'ylab topilmagan. Ular o'g'il-qizlarning jismonan va ruhan sog'lom, chidamli bo'lib o'sishiga yordam beradi. Demak, xalqimizning oddiy o'yinlarida ham ajdodlar zakosi, ruhiy va jismoniy komillikka intilish niyati mujassam.

**Umida ABDUAZIMOVA, shoira,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan  
madaniyat xodimi**



## Qo'mondon va yoshlar



# XALQ VA

## ARMIYA O'RTASIDAGI MUSTAHKAM KO'PRIK



Urganch shahridagi Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni o'quvchi-yoshlar bilan uchrashdi.

Samimiy kayfiyatda o'tgan tadbirda okrug qo'mondoni general-

mayor Farhodjon Shermatov mardlik, jasorat va matonat timsoli bo'lmish

Jaloliddin Manguberding harbiy san'at ilmiga qo'shgan hissasi, yurt tinchligi, xalq farovonligi yo'lidagi fidoyiligi haqida so'zlab, O'zbekistonda o'sib-ulg'ayayotgan har bir yigit-qiz sarkarda bobomizning tarixiy me'rosini o'rganishi va faxrlanib yurishini ta'kidladi.

Qo'mondon o'z nutqida davlatimiz tomonidan yoshlar uchun katta imkoniyatlar yaratilayotgani hamda har bir yosh yigit-qiz qiziqishidan kelib chiqib, oldiga aniq maqsad qo'yishi kerakligini uqtirdi.

Shuningdek, qo'mondon Prezidentimiz rahbarligida Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida

xizmatchilar hamda Qurolli Kuchlar faxriylarining o'rni oshib bormoqda.

Uchrashuvda yoshlarning harbiylikka bo'lgan qiziqishi ularning savollaridan, yuz-ko'zlaridan qalqib turardi. Generallik libosiga havas bilan qarab turgan murg'ak qalblar, hayotini harbiylikka bag'ishlash orzusida harbiy litseyga o'qishga kirgan o'quvchilar uchun bu uchrashuv hech qachon unutilmaydigan bo'ldi.

Qo'mondon yoshlar bilan Ogahiy nomidagi viloyat musiqali drama teatri aktyorlari tomonidan mardlik va Vatanga cheksiz sadoqatning yorqin timsoli bo'lmish "Jaloliddin Manguberdi" spektaklini tomosha qildi.

zamonaviy armiyamiz ham shakllanganini, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolariga yaratilgan yangi imtiyozlar haqida to'xtalib o'tdi.

Chindan ham olib borilgan tizimli islohotlar natijasida bugun xalqimiz va armiyamiz o'rtasida mustahkam ko'priklar o'rnatildi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mustaqil hayotga tayyorlashda harbiy

Tadbirdan so'ng qo'mondon harbiy litseyda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ta'lim berish jarayonlari bo'yicha olib borilayotgan ishlarining hisobotini tinglab, professor-o'qituvchilar tarkibi bilan suhbatlashdi.

**Kichik serjant A. UMARALIYEV**  
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

## Ko'rik-tanlov



# AYYOM SHUKUHI

Termiz garnizonida joylashgan harbiy qismda 21-mart – Navro'z umumxalq bayrami munosabati bilan harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ishtirokida "Olam nurga to'lsin, sen bilan, Navro'z!" shiori ostida "Mohir qo'llar" hamda "Pazanda beka" ko'rik-tanlovlari o'tkazildi.

Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, harbiy oilalar o'rtasida hunarmandchilik hamda milliy qadriyatlarni keng targ'ib etish maqsadida tashkil etilgan bellashuvlar murosasiz va qizg'in lahzalarga boy tarzda kechdi. Yurt posbonlarining bekalari musobaqalarda o'zlarining

pazandalik va kasb-hunar bobidagi mahorati bo'yicha bellashdi.

– "Mohir qo'llar" ko'rik-tanlovida ishtirokchilarning qo'l mehnati yordamida tayyorlangan to'qimachilik, tikuvchilik va hunarmandchilik mahsulotlari namoyish etildi, – deydi podpolkovnik Nizomiddin Otajonov. – Pazandalik yo'nalishi bo'yicha

musobaqada milliy taomlarni tayyorlash va tortiq etish mahorati sinovdan o'tkazildi. Barcha soha vakillari kabi harbiy xizmatchining oilasi tinch, farovon bo'lsa, uning xizmatida osoyishtalik va rivojlanish bo'ladi. Ushbu tanlovlar harbiy oilalarda totuvlikni saqlash, bir-biriga hurmat singari azaliy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, "Pazanda beka" ko'rik-tanlovida 1-o'rinni kichik

serjant Abdurazzoq Azizovning turmush o'rtog'i Jahona Rashidova egallagan bo'lsa, "Mohir qo'llar" tanlovida kichik serjant O'ktam Ro'ziyevning rafiqasi Sarvinoz Shuhratova mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritdi.

**III darajali serjant Akbar AHMEDOV**  
Termiz garnizoni



# STRESS FOYDALIMI YOKI ZARARLI?

Ekspertlarning fikricha, stress inson asab tizimining qattiq zo'riqishi natijasida yuzaga keladigan, kuchli va uzoq davom etuvchi psixologik tanglik holati hisoblanadi. Ya'ni inson hayotida paydo bo'ladigan turli muammoli vaziyatlar ularda stressli holatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Bundan ko'rinib turibdiki, kuchli zo'riqish va bosim salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar bo'lib, uning natijasida inson tanasida ko'plab psixologik va fiziologik o'zgarishlar kuzatiladi. Bu holatga fanda distress deyiladi.

Shu bilan birga, qanchalik ajablanarli bo'lmasin, me'yordagi stressli holat insonga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, bunga esa eustress deyiladi. Aynan eustress insonga ruhiy kuch beradi va faoliyatga undaydi. Mazkur maqolada shular xususida so'z yuritiladi.

## STRESS MAVJUDLIGI QANDAY NAMOYON BO'LADI?

Stress inson faoliyatining ajralmas yo'ldoshi bo'lib, doim yonma-yon yuradi va shunga ko'ra har birimiz ishd, uyda, o'qishda, jamoat transportida, jamoat joylarida – hamma joyda stressli vaziyatlarga sabab bo'luvchi holatlarga har kuni duch kelishimiz mumkin.

Stressning emotsional belgilari: kayfiyat o'zgarishi, tez-tez xavotirlanish, tez jahll chiqishi, emotsional zo'riqish, loqaydlik, asabiylashish, o'zini yordamsiz his qilish, o'ziga nisbatan ishonch yo'qolishi, o'zini past baholash, diqqat pasayishi kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Uning fizik belgilari sifatida esa yurak urishi, siqilish, ovqat hazm qilish va nafas olishdagi qiyinchiliklar, ko'p terlash, uzoq vaqt davom etadigan oshqozon va ichaklarning to'liqsimon kerilish yoki siqilish harakatlari, qaltirash, titrash, teridagi allergiya, hushdan ketish, eski kasallikning qaytishi, ich qotishi va boshqalarni keltirishimiz mumkin.

## SALBIY TA'SIRLARI

Biz fiziologik va psixologik stressni o'zimizda his qilamiz. U insonga asosan salbiy ta'sir qiladi. Oqibatda insonlarda aqliy, jismoniy, emotsional va ruhiy zo'riqish kuzatiladi, organizm holdan toyadi.

Fiziologik stress organizmning o'ta jismoniy zo'riqishi, tanada paydo bo'lgan og'riq, qo'rquv hissi, kasallik tufayli yuzaga keladi. Masalan, soch to'kilishi, semirib ketish yoki vazn yo'qotish, eshitish qobiliyatining yo'qolishi, jigar sirrozi, saraton, oshqozon-ichak kasalliklari, yurak muammolari, ko'krak qafasidagi og'riqlar, nafas olish muammolari, qon bosimining ko'tarilishi, qandli diabet bilan birga, eng ko'p uchraydigan uyqusizlik holati aynan fiziologik stressga sababchi bo'ladi. Shu kabilar fiziologik stressga sababchi bo'ladi. Shu bilan birga, eng ko'p uchraydigan uyqusizlik kuzatiladi, ya'ni stress uyqusizlikni, uyqusizlik esa stressni keltirib chiqaradi. Bu holatdan esa stressni keltirib chiqaradi. Bu holatdan chiqish oson emas va u jiddiy professional yordam talab qiladi.

Bunday holda stress bosh og'rig'i bilan birga keladi, bu esa kuchli hissiy bezovtalikni boshdan kechirayotgan tananing qon oqimini tananing boshqa qismlariga, masalan, yurak yoki oyoq-qo'llariga yo'naltirishidan kelib chiqadi.

Psixologik stress ma'lum bir voqealarning inson ruhiyatiga ta'siri natijasida paydo bo'ladi va bunda inson ruhan iztirobga tushadi. Natijada fikrlashda chalkashliklar paydo bo'ladi, ong xiralashadi, miya normal ishlashni to'xtatadi – optimal ishlashni ta'minlash uchun esa yetarli manba yo'qoladi. Bu ayniqsa, insondan qat'iyat va jasorat talab qilinadigan holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi: xavf holatida ko'p odamlar ikkilanishni, shubhalanishni va qo'rqishni boshlaydi.

## STRESSNING IJOBIIY XUSUSIYATLARI NIMALARDA KO'RINADI?

Alabama universiteti professori Richard Sheltonning fikricha, stress har doim inson organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Ha, agar u surunkali holga kelgan bo'lsa, unda siz mutaxassis bilan bog'lanishingiz kerak, ammo agar stress vaqti-vaqti bilan ro'y bersa yoki me'yorda kuzatilsa, bu insonga foydali bo'lishi mumkin.

Tahlillarga ko'ra, inson ma'lum bir stressli holatlarga duchor bo'lganda, uning intellektual qobiliyatlarining ko'rsatkichlari ortadi, chunki miya neyronlarni hayotiylik holatida saqlaydigan va ular orasidagi aloqani ta'minlaydigan ko'proq neyrotrofinlarni hosil qiladi.

Shuningdek, tana stress ta'sirida yanada chidamli bo'ladi, chunki stressni hissiy tizim va psixika uchun o'ziga xos mashg'ulot deb atash mumkin. Biroz kishi stressga duch kelganda va u bilan bog'liq muammolarni hal qilsa, u yanada jiddiy muammolarga nisbatan chidamli bo'ladi. Bundan tashqari, stress shaxsda motivatsiyani shakllantiradi. Bu odamga energiya va resurslarni tejaydigan holatga kirishga imkon beradi.

Umuman olganda, optimal darajadagi stress insonga ijobiy ta'sir etib, uni faoliyatga undaydi. Shunday ekan, har bir inson o'zida stress kechishining optimal darajasini belgilab olishi zarur, shundagina ijobiy natijaga erishishi mumkin.

## QANDAY YENGISH MUMKIN?

Stressni yengishning asosiy yo'nalishlaridan biri psixologik yo'l bo'lib, bunda stressorlar, ya'ni stressli holatlarni keltirib chiqaruvchi omillar ta'sirini kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo'nalishda shaxsning yaqinlari tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishi,

shaxsiy nazoratni kuchaytirish, jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish katta natija beradi.

Bundan tashqari, stressga qarama-qarshilik qilish – organizmning biologik ehtiyojini ratsional ta'minlash, masalan, to'g'ri uyqu, jismoniy mashg'ulotlar, to'g'ri ovqatlanish uning salbiy ta'sirlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, stressning optimal darajadan oshishi inson faoliyatiga, uning jismoniy va psixologik holatiga salbiy ta'sir etadi. Shu sababli bunday stressga inson sovuqqon munosabatda bo'lishi, stressga qarshi kurasha olishi, moslashuvchanlik qobiliyatini rivojlantirishi lozim.

Umuman olganda, inson hayoti davomida stressga uchrab turishi tabiiy jarayon bo'lib, sizga salbiy ta'sir o'tkazayotgan har qanday stressli vaziyatlarga e'tiborli bo'lishingiz lozim.

## STRESS HAQIDA QIZIQARLI FAKTLAR

– Shvetsiyalik olimlar stress tufayli ko'p odamlarning bo'yi kechqurun ertalabkidan 1 foiziga kamroq bo'lishini aniqlashga muvaffaq bo'lishdi.

Haqiqat shundaki, stress orqa va yelka mushaklarining kuchlanishiga hissa qo'shadi, bu esa odamni yerga biosib turishiga olib keladi.

– Stress ko'pincha "jim qotil" deb ataladi, chunki u tartibsiz yurak urishi, yurak kasalliklari, yuqori qon bosimi va ko'krak qafasining doimiy og'rig'iga olib kelishi mumkin.

– Stress ko'pincha saraton va jigar sirrozi kabi kasalliklarni rivojlantiradi.

– Shvetsiyada o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, ishning o'zgarishi sababli stressga duchor bo'lgan erkaklarning boshqalarga qaraganda 39 foizi eshitish muammolaridan tez-tez shikoyat qiladi. Olimlarning fikriga ko'ra, bu muammolar stress gormonlari va tashvish tufayli ichki quloq retseptorlarini haddan tashqari qo'zg'atishdan kelib chiqadi.

– Agar bolada stress surunkali holatga kelsa, bu uning o'sishini sekinlashtirishi mumkin, chunki tananing gipofiz bezidan o'sish gormoni ishlab chiqarish qobiliyati pasayadi.

– Los-Anjelesdagi Kaliforniya universiteti tadqiqotchilariga ko'ra, stress gormonlari miyaning ichakni tartibga solish uchun mas'ul bo'lgan hududlarini rag'batlantiradi, bu esa oshqozon buzilishi va qayt qilishga olib kelishi mumkin.

**R. XALILOVA,**  
Mudofaa vazirligi "Call-center"  
bo'linmasi bosh mutaxassisi



Bola qo'shnining darvozasi oldida to'kilgan qumda o'ynayotgandi. Mayin qumda o'ynash maroqli edi. Shu payt...

\* \* \*

Ijtimoiy tarmoqlarda bolalariga aliment to'lamaslik uchun ikki yil davomida bekinib, o'z xonadoni yerto'lasida yashab yurgan erkak otlig'ning ushlangani xabari tarqaldi.

Bu birinchisi emas. Avvalroq ham aliment to'lashdan qochib yurgan biri Toshkentdagi uy yerto'lasidan topilgan edi. Ko'rpalar ostiga bekingani ham bor...

# Qum o'ynayotgan bola



Ular haqda yozganda ota, erkak so'zlarini ishlatgim kelmadi.

...Bu qizning ismi Charos edi. Hammaga o'xshagan oddiy bir qiz. Yaxshi qiz ovulidan ortmaydi deyishadi. Sinfdoshidan sovchi keldi. Qo'shni edilar. Yigitga ko'ngli bormidi? Buni birov so'ragani yo'q. Bitta-yu bitta qizim, uzoqqa tushganidan ko'zimning yaqinida bo'lgani yaxshi, dedi onasi. To'y. Turmush. Oila tashvishlari.

Yonma-yon hamsoya emasmi, qattiq-quruq gap-so'z baralla eshitaladi. Onaning joni halak, qizimga

baqirmayaptimi, deb. Avval ham ularning ovozi eshitalarmidi? Qo'shnining baqir-chaqiridan bezovta bo'larmidi? Ikki kundan beri Charos hovlida ko'rinmaydi. Tinchmikan? Onaning vujud quloqqa aylanib, qo'shni hovliga ko'z tikkani tikkan edi. Qiziga o'dag'aylay boshladimi? Chidolmadi, qizini hammolikka bergan emas. Homilador bo'lsa, avaylashsa bo'lasmikan? Mana, o'zi ikki kelinni ra'yiga qaraydi.

Qizining ro'zg'origa aralashishga aralashdiku-ya... oxiri yaxshi bo'lmadi-da. Charos qo'lida emizikli bolasi bilan ota uyiga qaytib keldi. Ortidan kimsa yo'qlamadi. Ajrashgan zahoti erkak Chiroqchi tomonlardan birini topib uylandi.

Charos-chi, Charos?! Ishdan uyga qaytgan akalari yoniga "Dadam keldilar", deb yugurgan jivanlariga qo'shilib yugurayotgan o'g'li Umidjonni jim kuzatardi. "Seni dadang emas, bizni dadamiz", deb qarindoshlari kichkintoyini itarib tashlasalar, o'ksinib onasining yoniga qaytardi. Kichik tog'a shafqatini darig' tutmagani uchun uni "dada" deb chaqira boshladi. Erkak uni bolalari qatori bag'riga olar, sovg'alar ilinardi. Bolalar esa o'z otalarini undan qizg'anishni kanda qilmas, erkalanmoqchi bo'lsa yana "Bu bizning dadamiz" deb uni yaqinlashtirmaslikka harakat qilardilar.

Bu xonadonda bola begona emas edi, ammo xonadonning bolasi kabi ko'rilmamas ham edi.

Umidjon dadalar Rossiya degan joyda uzoq vaqt qolishini bilib oldi. Endi u ham dadasi bilan maqtana boshladi: Rossiyaga ketgan, qaytgani menga o'zi yuradigan mashina olib keladi...

Eri boshqa xotin olganidan so'ng Charos ham oila qurdi. Qanday qilib? Uning bolasi bilan qabul qiladigan mard topildimi?

Internet orqali tanishibdilar. Erkak chirchiqlik emish. Xotini o'lib, ikki qizi bilan qolibdi. Charosning onasi uzoqqa qiz berolmasligini aytsa-da, qanday rozilik berganini o'zi ham bilmay qoldi. Faqat bir narsadan yuragi xijil edi. Bolani keyinroq olib ketar ekanlar.

Oradan olti oy vaqt o'tdi. Bolani olib ketishdan darak yo'q. Erkak istamabdi. Bolang kerak emas, debdi. Bolangni olib kelsang, bu uydan o'zing ham daf bo'l, dedi. Charos chorasiz qoldi.

Bu yoqda uydagi ikki kelinga ham bola og'irlik

qila boshladi. Nega Umidjon bizning bolalarimiz rizqiga sherik bo'lishi kerak?

"Sho'r yetim" degan iborani eshitganmisiz? Eshitgansiz. Sho'r yetim deb otasi, onasi ham o'lib ketgan bolalarga aytiladi. Yana "tirik yetim" degani ham bor. Bunisini ham bilasiz. Ko'rgansiz. Ikkisini farqi bormi? Qay biri og'ir? Bir qarashda farqi yo'qdek. Ammo tirik yetim bo'lish og'irdan og'iridir.

Umidjon-chi, Umidjon?! U... yetimmi? Yo'q, otasi o'lmagan, tirik. Sho'r yetim ham emas, otasi tirik, o'lmagan, onasi ham tirik, o'lmagan. Tashlandiq... qanday og'ir so'z, guldek go'dakka qanchalar yarashmagan so'z. Istalmagan bola... Keraksiz bola...

Umidjon hali bola. U hali hech kimni yomon ko'rib qolmagan. Nafrat degan tuyg'u unga begona.

Yagona achchiq haqiqat shuki, u otasiga ham, onasiga ham kerak emas.

\* \* \*

Agar yuqoridagi voqea, ya'ni Charosning boshqa erga tegishi, erining bolani qabul qilmagani haqida ijtimoiy tarmoqlarda bo'lishsam, aniq ishonamanki, hamma baravariga ayolning go'riga g'isht qalagan bo'lar edi. "Ersiramay o'l", "Boladan ham er aziz bo'ldimi?", "Bolani tashlab ketishga qanday ko'zing qiydi?", "Birovning bolasiga qaraguncha o'zingnikini eplasang bo'lmaydimi?", "Sen ham onamisan?"... va hokazo. Bolani qabul qilmagan erkakni ham avaylab o'tirishmasdi. To'g'ri, ikkinchi er ham nomard ekan, aslida. Shunday dedim-u, tilimni tishladim. O'z otasiga ham kerak emas-ku?! Ayrim yaratilqlar o'z farzandiga aliment to'lagisi kelmay qochib yuribdi-ku.

Bilasizmi, eng yomon ko'rgan narsam – ayolni ayblash. Eng tuban yo'lni tanlagan ayolni ham tushunishni, tinglashni istayman. Charos... hayotda u kabi ayollarni ko'p ko'rdim. Ikkinchi oilasiga bola ergashtirib kirgan ayollarga oson emasligini bilaman. Shunday bo'lsa-da, birinchi buzilgan turmushdan keyin, ayniqsa o'rtada bolalar bo'lsa, chuqurroq o'ylab ko'rishni maslahat berar edim.

O'g'illarimiz mustaqil bo'lishni istasa, ularni qo'yib yuborishdan qo'rqmaylik!

Qizlarimiz o'ziga ishongan, hayotda o'z o'rnini topa oladigan, haququqini tanigan, ma'rifatli

bo'lishiga ko'maklashaylik. Oldinda nimalar bo'lishini hech kim bilmaydi. O'qish kerak. Hamma ham oliy ma'lumotli bo'la olmaydi. Ammo hammaning ham boshqalardan ko'ra juda yaxshi qila oladigan ishi bo'ladi. O'n olti yoshiga qadar eng kamida bir hunar egasi bo'lish lozim.

Charos na bir joyda o'qigan, na bir hunari bor. Johil desa ham bo'ladi. Negaki, yagona farzandini taqdir hukmiga tashlab qo'ydi. Go'dagini sevmagan tog'alari qo'lga qoldirdi. Kexsa ona bolani eplay olmaydi.

Hech narsa ona bag'rini bosa olmaydi. Qiyinchiliklar, mashaqqatlarga kattalar kabi bolalar ham ko'nadi, faqat ota-onasining bag'rida bo'lsa bo'lgani.

Ancha yillar muqaddam kichkintoyim bilan bolalar kasalxonasida yotganmiz. Palatada biz bilan olti-yetti yoshlardagi Vova degan bola bor edi. Ancha kun o'tsada, uni kimsa yo'qlamadi. Nihoyat, bir kuni ota-onasi keldi. Piyonista er-xotin. Vovaning quvonchini ko'rsangiz edi... "Biz kabob yedik, dadam olib berdi!" Men uchun, yon-atrofimdagilar uchun ular piyonista edi. Zinhor Vova uchun emas. Vova ularni behad sevardi, kutardi, ular bilan baxtli edi...

Ajrimlar bor, bo'ladi. Ammo xotiningiz, eringiz bilan ajrashganda bolalar bilan ham ajrashmang!

\* \* \*

Bola qo'shnining darvozasi oldida to'kilgan qumda o'ynayotgandi. Mayin qumda o'ynash maroqli edi. Shu payt... "Tur, yo'qol, bu yerdan!" degan hayqiriqdan cho'chib ketdi. Qum yopishgan oyoqchalari chalishguday yugurib, uyi tomon qochdi. Qo'rquvdan rangi oqarib, o'zini momosining bag'riga otdi.

Ming afsuski, bolani it kabi quvgan sharafsiz o'z otasi edi...

\* \* \*

Ey, sen, qum o'ynayotgan bola, sevimsiz bola, nega tug'ilding?! Necha kunki, seni o'ylab oromim yo'q, huzurim yo'q, yuragim simillaydi...

Ey, sen, sharafsiz ota, noshud ona, taqdir hukmiga otganing – bola uvulidan qo'rq!

**Inobat IBROHIMOVA,**  
"Vatanparvar"



Harb ilmi dunyosida muhtasham bir imorat bunyod etgan

# JANG SAN'ATKORI

Jaloliddin bug'doymag'iz, turkiy qiyofa, o'rtabo'y va turkiyda gapiradigan odam edi, deydi tarixchi Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. U sherlar orasida eng zo'r sher edi. Qo'rqmas chavandoz, lashkar orasida eng botir edi. Haqoratimiz so'zlarni aytmasdi, nihoyatda jiddiy edi. Kulmasdi, faqat jilmayib qo'yardi. Kam gapirardi. Haqgo'ylikni, adolatni ulug'lardi.

**Bu sifatlar** gurjilar bilan kechgan janglarning biridagi voqeani eslatadi. Gurjilar qo'mondoni Ivane bilan ikki qo'shinga dam berish, shu vaqtda ikki tomon bahodirlariga hammaning ko'zi oldida kuch sinashish bo'yicha kelishuv bo'ladi. Bahodirlar olishuvda Jaloliddinning o'zi jang maydoniga tushadi. Jussasi birmuncha kichik bo'lishiga qaramay, sulton devqomat bir gurji pahlavonini, so'ng birin-ketin uning o'g'illarini, keyin yana dushmanning bir necha jasur askarini o'ldiradi.

Bu jangni tarixchi olim Jumaboy Rahimov shunday hikoya qiladi:

"Sulton Jaloliddinning jang maydoniga chiqishini na u tomondan, na bu tomondan hech kim kutmagan edi. Sulton jang maydoni markazi tomon shamolday gupurib, momaqaldiroqday gumburlab ot soldi. Dushman tomondan yakkama-yakka olishuvni bahodir aka-ukalar sardori pahlavon ota boshlab berdi. Jaloliddin birinchi hujumdayoq pahlavonlar sardorining nayzasiga chap berishga ulgurdi va zarb bilan o'z nayzasini raqibining ko'kragiga yo'naltirdi. Nayza shunday kuchli va shiddatli urildiki, gurji bahodirlari sardorining sovuti teshilib, u nayzaga sixlangancha otdan gursullab qulab tushdi. Otasining talvasada jon berayotganini ko'rgan aka-uka bahodirlar, ular ketidan quroldosh uch bahodir do'sti bilan Jaloliddinga birvarakayiga g'azab bilan hujumga tashlandilar. Ana shu ayovsiz olishuvda Jaloliddinning Sind daryosidan omon olib chiqqan asov tulpori uning joniga oro kirib, jangovarligini yana va yana namoyish etdi. Ikki tomon qo'shin jangchilari hayratdan tosh qotgan. Shunday qilib, Jaloliddin Manguberdi pahlavon ota boshchiligidagi aka-uka bahodirlar va do'stlarini mag'lub qildi".

## Tarixchi Juvayniy

bu jangni Rustam va Zolga muyassar bo'lmagan voqea, deb ataydi. "Sulton yakkama-

yakka olishuvda g'animlarning sakkizinchi bahodirini ham yer tishlatgach, maydonning qoq markazida turib, qamchisining sopi bilan ishora qildi. Shul soniyada mard maydon sulton Jaloliddin jangchilari olg'a bosdilar. Gurji qo'shini tahlikaga tushdi. Zafarning ilk alomatlari zohir bo'lib, nusratning jozibador nurlari chehra ochdi. Ular vaqt borida qochib qolib, oqshom etagiga yopishdilar va so'ngra tun zimistoniga yashirinlashdan o'zga chora topa olmadilar".

**Sarkarda**, davlat arbobi Jaloliddin Manguberdi hayoti haqida bitilgan kitoblar bir necha javonni to'ldiradi, agar bir joyga jamlansa. Ular orasida Jaloliddinning zamondoshlari – Nasaviy, Juvayniy, Abul Fido, Ibn Asir kabilarning asarlari alohida o'rin tutadi. Mazkur tarixiy manbalarni o'rgangan, tadqiq qilgan olimlar asarlarining o'zi bir dunyo. Turk, olmon, ingliz, rus, fransuz va boshqa tillarda Xorazmshohlarning davlati tuzilishi, boshqaruvi, qudrati, diplomatik aloqalari, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti kabi yo'nalishlarda o'nlab kitoblar yozilgan.

Taniqli turk tarixchi olimlaridan biri Oydin Tonariy "Jaloliddin Xorazmshoh va uning davri" nomli asarida davlat, armiya, adliya tashkilotlarining qurilishi, faoliyati, hokimiyat ramzlari, hukmdorlarning qabul marosimlari, mansabdorlarning vazifalari va o'rni, qo'shin tarkibi, jang usullari hamda

boshqa masalalar haqida batafsil ma'lumotlar beradi.

## Xorazmshohlar davlati

va hukmdorlarining ramzlari haqida yozar ekan. Oydin Tonariy Jaloliddin bayrog'ining rangi ota-bobolariniki kabi qora rangda edi, deydi. Uning e'tiroficha harbiy musiqa ham ramzlardan biri hisoblangan. Saltanat saroyi yoki chodirning eshigi oldida ma'lum bir vaqtlarda, ko'pincha namoz soatlarida musiqa chalingan. Jaloliddin uchun bir kunda besh marta musiqa chalingan. Bunga "navbati zulqarnayn" deyilgan. Sultonga tobe vassallar uchun kuniga uch marta musiqa chalingan. O'sha davrda mavjud bo'lgan an'anaga ko'ra, tobe bir hukmdorning besh marta musiqa chaldirishi isyon ko'tarish degan ma'noni anglatardi. Shuning uchun Jaloliddin "navbati zulqarnayn"ni ortiqcha chaldirgan bir tobe hukmdorni qatl qildirgan edi.

**Hukmdorning** moddiy ramzlaridan biri "tug" ot dumidan yasalgan. "Tug" qirmizi nayzaning ustiga o'rnatilgan oltin huqqaga biriktirilgan. Jaloliddinning yetti dona tug'i bo'lgan. Shu o'rinda tug' va

himoya qilgan. Qamal vositasi sifatida manjaniq, naftandoz, narvon va devorteshar qurollardan foydalanilgani manbalardan ma'lum. Ohlat qamali vaqtida Jaloliddin 12 ta manjaniq qurdirgan. Ularning har birini sakkiz kishi ishlatgan. Jaloliddin bayram kunlari kamar taqar edi. Sultonning kamari benazir nodir, qimmatbaho toshlar bilan ziynatlangan edi. Bu kamarni sultonga Ozarbayjonning sobiq otabegi O'zbekning o'g'li Xomush tuhfa qilgandi.

**Safarbarlik** qaroriga kelgach, Jaloliddin qo'shinning yuksak rutbali sarkardalariga, ya'ni xon, malik, amir va pahlavonlarga, goho chovushlarga qirmizi o'q yuborar edi. Qirmizi o'qni olgan qism qo'mondoni darhol qo'l ostidagi askarlari bilan sulton yoniga yetib kelardi. Safarbarlikning boshqa shaklida u sarkardalariga maktub yo'llardi.

Jaloliddin Hindistondan qaytgach, ukasi G'iyosiddin Pirshohni itoatga keltirishga qaror berdi va uning amirlariga bir elchidan uzuklar yubordi. Ayrim amirlar uzukni qabul qilib, Jaloliddin tarafga o'tdi. Boshqalari bo'lsa uzukni G'iyosiddinga eltib topshirib, uning tarafdori ekanliklarini ko'rsatdilar. Uzuk yuborish usuli itoat ostiga olish uchun qilingan bir harakatdir.

**Chingizxon** Samarqandga yaqinlashganida Xorazmshoh Muhammad Xazar, hozirgi Kaspiy dengizidagi bir orolda jon saqlagan edi. U kech bo'lsa-da, xatosini anglab, o'g'illarini yoniga chorlaydi. Jaloliddinni valiahd etib tayin etadi. Yashin tezligida ukalari Oqshoh va Qutbiddin O'zloqshoh bilan birga Gurganj mudofaasiga oshiqqan Jaloliddinga qipchoq amirlari xoinlik qiladilar. Mamlakat qil ustida turgan vaqtda gina-kuduratlarni unutib, birlashib, yovga qarshi choralar ko'rish o'miga o'ziga suiyoq uyushtirilayotganini eshitgan Jaloliddin Temur Malik boshchiligidagi 300 suvoriy bilan Gurganjdan Xurosonga yo'l oladi. Niso shahri yaqinida u 700 nafar mo'g'ul suvoriysini

Maqsud SHAYXZODA

## MENDURMAN O'SHAL

### Jaloliddinning Elbars pahlavonga deganlari

Elbars polvon, fikring rost, o'lsak qarz bilan,  
Haq oldiga chiqarmiz qaysi arz bilan.

Darhol-darhol egarlang chopong'ich tulpor,  
Bu daryodan o'tmoq bor, kelmoqlik ham bor.

G'urbatlarga yo'l olmoq ulug' musibat,  
G'urbatda ham armondur Vatanga xizmat!

Modomiki, qo'lim zo'r, shamshirim keskin,  
Hindda, Sindda, Eronda topmasman taskin.

Ha, bil, Chingiz, sen bilan hisobimiz bor,  
Bir hisobki, qasosning o'zi hisobdor.

Hali ado bo'lmabdi ulug' hangoma,  
Nasaviy bitirmasdan qoldi jangnoma.

Qilichimning zarbidan uzoq va yaqin,  
Sultonlarni rom aylab yo'l boshlab tag'in.

Eron, arab, rum, arman lashkarin hamon,  
Senga hamla qildiray bamisli to'fon.

Elbars, Jaloliddinning eng shirin baxti,  
Urganchda Xorazmshoh qadimiy taxti.

Ko'klardanmi, suvdanmi yo yer tagidan,  
Balki sahro bag'ridan, tog' etagidan.

Bir kun paydo bo'laman shu yurt, shu yerda,  
Yurt shaydosi ko'milmas g'urbatda-go'rd.

Ulug'vor niyatlarga kor qilmas ajal,  
Kim yurtidan yov quvsa – mendurman o'shal.



bayroqning alohida ramzlari ekanligini qayd etib o'tish lozim.

**Jaloliddinning** suvoriylari, piyodalari o'z davrining eng mustahkam va ilg'or qurollari bilan qurollangan edi. O'q-yoy, qalqon, qilich, nayza asosiy qurollar sanalib, ular sifatining dong'i taralgan edi.

Askarlar egnidagi sovut ularni har qanday zarbadan



yakson qilib, Nishopurga keladi. Bu yerdan u barcha viloyat hokimlariga nomalar jo'natib, bir oydan so'ng G'aznaga ot soladi. Yo'lda unga Hirot voliysi, qaynotasi Aminalmulk 10 ming kishilik qo'shin bilan qo'shiladi. Ular yo'l-yo'lakay Qandahorni qamal qilib turgan mo'g'ul qo'shinlarini tormor qilib, 1221-yili G'aznaga kirib keladilar.

Bu holatni Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy shunday ta'riflaydi:

"Odamlar uning kelishini quvonch bilan, xuddi qurg'oqchilikdan qiynalgan odamlarning yomg'irni, ro'za tutganlarning ramazon tugab hayitni kutganiday kutib olishdi. Uning xizmatiga Sayfiddin Egroq al-Xalajiy, Balx hukmdori A'zam Malik, qorluqlar yo'l boshchisi al-Hasan Qorluq kabilar o'tishdi. Har birining qo'l ostida 30 mingdan lashkar bor edi".

**Qandahorda** qo'shinlarining mag'lub bo'lganini eshitgan Chingizxon o'g'li To'lixonni minglab qo'shinga bosh qilib otlantiradi. Jaloliddin dushmani "tog'dan tushayotgan sel oqimi singari behisob otlislar, sherkelbatli lashkarlar bilan qarshiladi". Voqea guvohi Nasaviy shunday yozadi:

"Ikkala qo'shin bir-biriga ko'ringanda uning o'zi (Jaloliddin) To'lixon markaziga otilib kirdi. Ularning jangovar saflarini buzib tashladi. Yog'iy bayrog'ini otlar tuyog'iga ostiga itqitdi. Uni o'z safini tashlab orqaga qochishga majbur qildi. Shundan keyin totorlar qilichlarga nishon bo'ldi. G'azab otiga mingan Jaloliddin dushmanlardan qanchasining boshini tanasidan judo qildi.

To'lixon hujum ayni kuchaygan, jang avjiga chiqqan paytda halok bo'ldi. Ko'plab navkarlar asir olindi. Xizmatkorlar asirlarni Jaloliddinning huzuriga olib kelar, qulog'ini teshib temir isirg'a osishar, shu tariqa hisobga kiritishardi. Jaloliddin buni nim tabassum bilan kuzatardi. Ularni ana shunday qiynovlarga solishdi".

**Jaloliddin** Xorazmshoh urushga qaror bergach, dushman bilan to'qnashishdan bir-ikki kun oldin ov tashkil qilardi. Bu ov mohiyatan harbiy manyovrdan iborat bo'lib, jang vaqtida ishlatiladigan taktika sinovdan o'tkazilardi. U jangdan avval qo'shinni rasmiy ko'rikdan o'tkazardi. Bu yo'l bilan askarlarining tayyorgarligini va ularning anjomini nazorat qilar, ularga ruhiy quvvat baxsh etadi.

**Xonlar, maliklar,** amirlar ishtirokida muhim qarorlar qabul qilinadigan kengash yig'inlari qat'iy tartib bilan o'tardi. Jang usullari, hujum vaqti, pistirma, qurol-yarog'larning shayligi barcha-barchasi birma-bir muhokama etilar va tajribali maliklar, sarkardalar mulohazalari eshitilardi. Shu o'rinda Jaloliddinning qat'iyiligi, tezligi, aniq, va to'g'ri qaror qabul qilishga oid bir voqea. Gurjilar bilan bo'ladigan bir jangdan oldin Jaloliddin vaziri va qo'mondonlari ishtirokida kengash o'tkazadi. Vazir dushman qo'shinlari son

jihattidan ustun bo'lgani uchun jang vaqtini keyinga surishni taklif qiladi. Bu taklif va mulohazadan jahl otiga mingan sulton vazirning boshiga dovot bilan urib, birdan jang qilish qarorini e'lon qiladi.

Jaloliddin jangni qaysi kuni boshlashni munajjimlarning ma'lumotlariga asosan belgilardi.

**Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy** Chingizxon va Jaloliddin o'rtasida bo'lib o'tgan Sind daryosi qirg'og'idagi mashhur jang tafsilotlarini shunday bitadi:

"618-yil shavvolning sakkizinchi kuni, chorshanba tongi otdi.

Ikki tomon bir-biriga yuzma-yuz kelib, jang qildilar. Jaloliddin ularga oz sonli qo'shin bilan ro'baro' bo'ldi. U Chingizxonning markaziga hujum qildi. Ularni bir necha bo'laklarga bo'lib tashlab o'ziga yo'l ochdi. La'natilar shikastlangan holda qocha boshladilar, u holdan toygan, himoyaga muhtoj, o'zini xalos qilishga intilganlarni quvishga tushdi. Kofirlar deyarli o'rab olingandi. Mag'lubiyat do'zax olovi singari totorlar qo'shini ustiga yopirigandi. Biroq u la'nati jangdan oldin bahodir laqabini olgan, saralangan 10 ming otliq lashkarini pistirmaga qo'ygan edi. Ular pistirmadan chiqib Jaloliddinning o'ng tomoniga, Amin Malik lashkarlariga hujum qildi...

Shundan so'ng jangovar saf buzildi, uning qat'iyatiga putur yetdi. Navkarlardan biri daryo bo'yiga keldi va cho'kishini bilgan holda, xalos bo'lishning boshqa yo'li yo'qligini anglab uning bag'riga o'zini otdi.

**Jang paytida** Jaloliddinning yetti yoki sakkiz yoshli o'g'li asirga tushib qoldi. U Chingizxon ko'z o'ngida qatl etildi. Jaloliddin holdan toygan holda Sind daryosi bo'yiga keldi. Shunda u onasi, xotini (qatl etilgan o'g'lining onasi) va haramidagi boshqa ayollarning: "Alloh nomi bilan sendan yolvorib so'raymiz, bizlarni o'ldir va shu tariqa asir tushishdan qutqar!" degan ayanchli faryodlarini eshitdi. U buyruq berdi. Ularning hammasi daryoga cho'ktirildi. Haqiqatan ham bu ko'z ko'rib, quloq eshitmagan baxtsizlik, og'ir qayg'u edi.

Jaloliddin Sind daryosi qirg'og'iga kelganda ortda biror himoyalangan nuqta qolmagan, atrofida esa o'lim quchog'ini ochib turardi. U orqasida yalang'ochlangan qilichlarni, oldinda esa to'lib-toshib oqayotgan daryoni ko'rdi. Va bor bo'yi, qurol-yarog'i bilan otini suvga niqtadi. U ot bilan birga Allohning inoyati tufayli uning himoyasida katta daryoni suzib o'tdi. Bu ot unga Tifliski bosib olguncha xizmat qildi va shundan keyin u minishdan ozod qilindi".

**Manguberdining** jang qilish tartiboti an'anaviy shaklda bo'lsa-da, u yuragidagi olovni, dushmanga nisbatan cheksiz nafratni qo'shinidagi har bir askarga yuqtira olgan edi. Shuning uchun ham ko'p yillar juda katta hududda Chingizxonga jiddiy zarbalar berdi. Jaloliddin barcha janglarida pistirmadan oqilona foydalana bilgan. U urushning bosqin shaklini ham ko'proq qo'llardi. Dushman qo'shini bilan ro'baro' kelgan sulton dushmaning kuch-quvvatini, uning lashkari qanday kuchlardan tashkil topganini chuqur o'rganar va lozim bo'lganda hiyla ishlatardi. Mustahkam qal'alarni manjanaq, devorteshar qurollar va naftandozlar bilan ishg'ol qilar, qamal uzoq davom etgudek bo'lsa, qo'shinlarini qal'a atrofida doira shaklida joylashtirar, shahar atrofida uylar qurdirardi.

Eng muhimi Sulton Jaloliddin behalovat kechgan chaqmoqdek qisqa umri davomida harbiy ilmi dunyosida muhtasham bir imorat bunyod qildiki, bu bilan dunyo tarixiga yana bir turkiy o'g'lon - jang san'atkorining nomi bitildi.

Furqat ERGASHEV

جنگ کا وہ غرقاب نور اس کے حلقہ است بر دوازو کار با سیار و قہنہا می شمار پادشاه کرمول چون دیدند کہ او بر آب زدند و استند کہ جہت خود از آب زمین چسبند و گمان گداشت و در تاج خیمه علیا و رده اند کہ سلطان چون دانست کہ تمامت مکر نیست پیشتر زن و پسر و ابلج حرم را در آب غرق کرد اینہ تا بدل سیر کی نیستند و خراسان را نیز در آب و بعد از آن بر آب زدند و بکشتند و لشکر بیان سلطان جلال الدین تمامت قبول آمدند و قبول کیفر زندان کردند





Markaziy harbiy okrugning Navoiy garnizonida Vatan oldidagi yigitlik burchini o'tab, muddatli harbiy xizmatni yakunlagan askarlarga oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda qo'shimcha ball beradigan harbiy qism qo'mondonligining imtiyozli tavsiyanomalarini tantanali topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

# ASKARLARGA IMTIYOZLI TAVSIYANOMALAR BERILDI



Yigitlarni o'z uylariga kuzatish arafasida tashkil etilgan tadbirida so'zga chiqqanlar xalqimiz o'z xizmat majburiyatlarini sidqidildan bajargan askarlar bilan faxrlanishini, so'nggi yillarda xalq va armiya o'rtasidagi yakdillik tobora mustahkamlanib borayotgani haqida so'z yuritdi.

Shuningdek, muddatli harbiy xizmatchilar respublika, vazirlik miqyosida o'tkazilgan ko'plab sport musobaqalarida, turli

yo'nalishdagi bellashuvlarda harbiy okrug sharafini munosib himoya qilib, hududdagi yoshlarga namuna bo'lgani e'tirof etildi. Kelajakda Vatan, el-yurt uchun jonkuyar, fidoyi inson bo'lib qolishlarini so'rab, tilak bildirildi.

Tantana davomida 272 nafar muddatli harbiy xizmatchiga oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda qo'shimcha ball beradigan harbiy qism qo'mondonligining imtiyozli tavsiyanomalarini topshirildi. Bundan tashqari,

yuzlab askarlarning ota-onalariga harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligining tashakkurnomasi hamda faxriy yorliqlari berildi.

Tadbir yakunida muddatli harbiy xizmatchilar harbiycha an'anaga muvofiq, safda tantanali marsh yurish orqali ramziy ma'noda harbiy qismlari bilan xayrlashdi.

**Markaziy harbiy okrug  
matbuot xizmati**

Shimoli-g'arbiy harbiy okrugga qarashli Nukus garnizonidagi harbiy qismlarning birida yigitlik burchini o'tab, rezervga bo'shatilgan muddatli harbiy xizmatchilar bayramona ruhda uylariga kuzatildi.

## SARA O'G'LONLAR

## uylariga kuzatildi



Bir yil mobaynida musofirchilikni ko'rib, mashaqqat va sinovlarda toblangan elimizning zabardast o'g'lonlari uylariga yorug' yuz bilan qaytishdan oldin harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni general-mayor Farhodjon Shermatov bilan uchrashib, suhbat qilishdi.

Nukus garnizoni ma'naviyat va ma'rifat markazining tantanalari zalida samimiy o'tgan uchrashuvda qo'mondon bir yil muddat ichida ma'nan va jismonan ulg'aygan yoshlarga pand-u nasihatlar berib, Vatan himoyachisi bo'lish kabi mas'uliyatli vazifa hammaga nasib etavermasligini ta'kidladi.

O'tgan yilda muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan yoshlar bugun ota-onalari diydoriga, uylariga yorug' yuz bilan qaytishmoqda. Bir yil katta muddat bo'lmasa-da, qisqa fursat yigitlarni ancha tobladi, mustaqil bo'lishga undadi. Ularning dunyoqarashini kengaytirdi, jamoa bo'lib yashashga, do'st-u birodarlik rishtalarini saqlashga, Vatanga xizmat qilishga, ota-onani qadrlashga o'rgatdi. Ha, armiya bu hayot maktabi. U insonni ham ma'nan, ham jismonan toblaydi, katta hayotga tayyorlaydi, chiniqtiradi.

Suhbat davomida qo'mondon namunali xizmati, komandirlar tomonidan qo'yilgan

vazifalarni bajarishdagi mas'uliyati, yurtimizning eng olis bo'lgan hududlarini himoya qilish yo'lida yuksak jangovar shayligi uchun askarlarga o'zining minnatdorligini izhor etdi. Bugun Yangi O'zbekistonni barpo etayotgan mehnatkash xalqimiz, Prezidentimizga yelkadosh bo'lish, mamlakatimiz farovonligi yo'lida xizmat qilish eng oliy sharaf ekanini uqtirdi. Vatanga qasamyodiga sodiq qolishga, doim yurt taqdiri uchun yonib yashash kerakligini eslatdi.

Shundan keyin harbiy qism saf maydonida muddatli harbiy xizmatni o'tab, rezervga bo'shatilgan askarlarning harbiylik hayoti bilan xayrlashish marosimi o'tkazildi. Unda so'z olganlar yigitlik burchini munosib bajarib, uylariga yorug' yuz bilan qaytayotgan askarlarga kelajakda Vatan, el-yurt uchun jonkuyar, fidoyi inson bo'lib qolishlarini tilashdi.

Tantana davomida 400 nafarga yaqin muddatli harbiy xizmatchiga oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda qo'shimcha ball beradigan harbiy qism qo'mondonligining imtiyozli tavsiyanomalarini topshirilib, bir guruh askarlarning ota-onalariga tashakkurnomalar berildi. Ta'kidlash joizki, muddatli harbiy xizmatni o'tagan yoshlardan bir guruhi hayotini harbiylik bilan chambarchas bog'lab, kelgusida kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni davom ettirishga istak bildirdi.

Nukus garnizoni harbiy orkestri hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligining san'atkorlari tomonidan taqdim etilgan konsert dasturi barchaga xush kayfiyat ulashdi.

Muddatli harbiy xizmatchilar harbiycha an'anaga muvofiq, safda tantanali marsh yurish bilan ramziy ma'noda harbiy qism bilan xayrlashdi.

Shundan so'ng yoshlar "O'zbekiston temir yo'llari" AJ tomonidan taqdim etilgan maxsus harbiy eshelon bilan harbiy orkestr sadolari ostida uylariga jo'nab ketishdi.

**Kichik serjant Abdullajon UMARALIYEV,**  
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug  
matbuot xizmati



## Harbiy hikmatlar

1

Har bir askar – armiya. Mamlakat uchun hech bir qo'shin o'z askarlaridan a'lo emas. Askar ham fuqaro. Darhaqiqat, fuqarolikning eng oliy burchi va imtiyozu bu o'z Vatani uchun qurol ko'tarishdir.

Jorj PETTON



# JASORAT YO'Q – G'ALABA YO'Q

Bir mix bir taqani, bir taqa bir otni, bir ot bir insonni, bir inson butun bir o'lkani qutqarishi mumkin.

Turk xalq maqoli

12

Yakka holda biz bir tomchimiz. Birgalikda esa ummonmiz.

Ryunoske SATORO, yapon yozuvchisi

22

Vatan sog'liqqa o'xshaydi. Qadri yo'qligida bilinadi.

Sulaymon NAZIF, turk shoiri va yozuvchisi

3

Askarlar sizga o'z muammolarini aytishdan to'xtatgan kun, siz ularga rahbar bo'lishdan to'xtagan kundir. Bunday holda ular sizga yordam bera olishingizga ishonchlarini yo'qotgan yoki ahamiyat bermaydi degan ikkilamchi xulosaga kelgan bo'ladi. Ikkala holat ham liderlikning muvaffaqiyatsizligidir.

Kolin PAVEL

13

Nima uchun odamlar yangi g'oyalardan qo'rqishlarini hech tushuna olmayman. Shaxsan men eski g'oyalardan qo'rqaman.

Jon KEYJ, bastakor

Eng yaxshi qurol – bu quroldan uzoqda turish.

Italyan xalq maqoli

14

Jasorat yo'q – g'alaba yo'q.

General-mayor Frederik BLESS

5

Jasorat kuchingiz borida emas, yo'g'ida shakllanadi.

Napoleon BONAPART

15

Dushmani yo'ldan ozdirishning eng yaxshi usuli bu unga e'tibor bermayotgandek ko'rinish.

Saurav CHAUDHARI, hind yozuvchisi

24

Mamlakatni mudofaa qilish uchun senga armiya kerak, insoniyatni himoya qilish uchun esa ilm kerak.

Jonatan SAKS, siyosiy arbob

Urushga g'alaba qozonish istagi bilan kirmaslik bu haqiqiy falokat.

General Duglas MAKARTUR

Vatan uchun yashamoq, uning taraqqiy etishi uchun ishlamoq ham Vatan uchun o'lmoq kabi sharafidir.

Grigoriy PETROV, publisist, jamoat arbobi

16

Rahbarlarni tog' cho'qqilari ilhomlantiradi, ammo vodiylar ulg'aytiradi.

Uinston CHERCHILL, Angliya bosh vaziri, Britaniya armiyasining sobiq qo'mondoni

25

Bir haftada askar bo'lib qolinmaydi. Buning uchun uzoq tayyorgarlik, o'qish va tartib-intizomda chiniqish kerak.

Deniyel INOUE, siyosiy arbob

17

Vatanga bo'lgan muhabbatni bilish uchun bir muddat boshqa mamlakatda yashash kifoya.

Uillyam SHENSTON, ingliz shoiri

26

Burch, Sharaf, Vatan. Mana shu uch muqaddas so'z sizning kim, nima va qanday bo'lishingizni namoyon qiladi.

General Duglas MAKARTUR

Qo'rqoqlar o'limidan oldin ko'p marta o'lishadi. Mardlar esa o'limni bir marta ham totmaydi.

SHEKSPIR

Ozodliksiz hayot jonsiz tanaga o'xshaydi.

Halil JUBRAN, arab yozuvchisi

18

Halok bo'lgan safdoshlarimizni hech qachon unutmashimiz kerak. Mustaqillik o'z-o'zidan kelmagan.

Serjant-mayor Bill PAKSTON

27

Jasorat hech qachon qo'rquvlaringiz harakatlaringizga ta'sir qilishiga yo'l qo'ymaslikdir.

Artur KYOSTLER, Buyuk Britaniya yozuvchisi va jurnalisti

9

19

Qahramonlarini biladigan millatnigina buyuk xalq deb atash mumkin.

Konstantin ROKOSSOVSKIY, polyak harbiy arbobi

28

Vatanparvarlik bayroqni hilpiratishdan iborat emas, balki mamlakatni qudratli bo'lishiga hissa qo'shishdan iboratdir.

Jejms BRYUS, shotland sayyohi va yozuvchisi

Jasur odam qo'rquvni his qilmaydigan emas, balki qo'rquvni yenggan odamdur.

Nelson MANDELA, Janubiy Afrika davlat va jamoat arbobi

10

Harbiy ilm – g'alaba ilmi.

Aleksandr SUVOROV, rus harbiy nazariyasi asoschisi

20

Boshqa xalqlar, mamlakatlar biz haqimizda yaxshi yoki yomon fikrda bo'lishidan qat'i nazar, bilsin, biz har qanday yukni ko'taramiz, har qanday qiyinchilik oldida tik turamiz, har qanday do'stni qo'llab-quvvatlaymiz, omon qolish va ozodlikni qo'llab-quvvatlash uchun har qanday dushmanga qarshi turamiz.

Jon KENNEDI, davlat va jamoat arbobi

Millatlarning hayot nafasi – bu ozodlik.

Bernard SHOU, irland dramaturgi va romannavisi, Nobel mukofoti sovrindori

30

Haqiqiy liderlikning to'rtta tarkibiy qismi mavjud: aql, ruh, yurak va yaxshigina asablar.

Klaus SHVAB, nemis iqtisodchisi

11

21

Oftser o'z bilim va mahorati bo'ysunuvchilariga foyda keltirishi uchun qo'mondonligidagi odamlardan ko'ra ko'proq sabr-toqat va jasoratga ega bo'lishi kerak.

Mustafo KAMOL, Turkiya Respublikasi asoschisi

Jurnalist Yulduz O'RMONOVA tayyorladi.



Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Termiz garnizonida xizmat qilayotgan bir guruh harbiylar ezgulik, mehr-oqibat, saxovat kabi ezgu fazilatlarimiz mujassam bo'lgan Navro'z bayrami munosabati bilan marhum serjant Muhiddin Eshtemirov xotirasini yodga olib, u ulg'aygan xonadonda bo'lishdi.

Termiz tumanida kamolga yetgan, Vatanga sodiq, jasur harbiy xizmatchi 2001-yili Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlarida bir guruh jangarilar bilan to'qnashuvda qahramonlik ko'rsatib, mardlaracha halok bo'lgan edi.

Harbiy xizmatchilar Muhiddin Eshtemirov ulg'aygan xonadonda uning onasi Manzura Dillayeva holidan xabar olishdi. Navro'zi olam bilan qutlab, dildan suhbatlashdi. Mard, jasur va qasamyodiga sodiq farzandni kamolga yetkazgan onaga chuqur minnatdorlik bildirib, Muhiddinning ajoyib fazilatlarini yodga olishdi. Qahramonning bolalik va yoshlik yillaridagi suratlari bilan tanishdi. Qisqa, ammo sermazmun hayoti davrida olgan mukofotlari, Vatan himoyasida bo'lgan davrlarda yozgan maktublarini ko'zdan kechirishdi va bayram sovg'asini topshirdi.

Tog'li hududdagi jangovar harakatlarda mardlaracha halok bo'lgan botir jangchining xizmati vafotidan so'ng davlatimizning

# Harbiylar marhum jangchini xotirladi



yuksak mukofoti – “Jasorat” medali bilan taqdirlandi. “O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga 10, 15, 20 yil”, “O'zbekiston mustaqilligiga 25 yil”, “O'zbekiston Konstitutsiyasiga 25 yil” singari esdalik nishonlar bilan mukofotlandi.

Ayni paytda Muhiddin Eshtemirov ulg'ayib, voyaga yetgan mahallaga



uning nomi berilgan. Ta'lim olgan maktabiga byusti o'rnatilgan. Xalqimiz tinchligi uchun ko'rsatgan mardligi o'z aksini topgan burchak tashkil etilgan. Harbiy qismlarda uning qasamyodiga sodiqligi o'z ifodasini topgan surat va lavhalar yosh harbiylar uchun haqiqiy ibrat maktabi vazifasini o'tamoqda.

Tinchligimiz posbonlari marhum harbiy xizmatchining qabrini ziyorat qilib, o'tganlarni xotirlashdi.

## Festival

Termiz shahridagi “Vatanparvarlar” bog'ida yoshlar uchun harbiy-vatanparvarlik festivali bo'lib o'tdi. Unda harbiy qismga birlashtirilgan yoshlar hamda umumta'lim maktablari o'quvchilari ishtirok etdi.

# Yoshlari vatanparvar yurt farovon bo'ladi



Mazkur bog' o'ziga xos dizaynga ega bo'lib, harbiy texnika va qurol-aslahalarni namoyish etish maydoni, harbiylashtirilgan to'siqlar yo'lasi, yoshlarda tezlik, kuch, epchillik, chaqqonlik, aniqlik, chidamlilik va qat'iyatlilik kabi xislatlarni rivojlantirib, jismonan sog'lom bo'lishga ko'maklashadigan “Mardlar yo'lasi” qurilgan. “Workout” maydoni, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish vaqtida halok bo'lgan 28 nafar harbiy xizmatchi xotirasiga bag'ishlab, mangu olov porlab turgan aylana shaklidagi xotira burchagida siymolari aks etgan “Qahramonlar nomi barhayot” burchagi tashkil etilgan.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini takomillashtirish uchun



viloyatdagi kuch tuzilmalari hamkorligida kompleks chora-tadbirlar belgilab olingan. Unga ko'ra, viloyatdagi har bir maktab va mahalladagi yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi uchun kuch tuzilmalari va huquqni muhofaza qilish organlari rahbarlari mas'ul etib belgilangan. Jumladan, o'tgan yili bu boradagi ishlar samaradorligini ta'minlash uchun keng jamoatchilik va harbiy xizmatchilar tarkibidagi targ'ibot guruhlari ishtirokida mahallalar, ta'lim muassasalari, sayilgohlarda mingdan ortiq tadbir tashkil etilib, 50 mingga yaqin o'quvchi, 20 mingdan ortiq uyushmagan yoshlar qamrab olindi.



Yoshlarni harbiy kasbga yo'naltirish hamda Qurolli Kuchlarning rivojlanish tarixi bilan tanishtirish maqsadida 200 dan ziyod ochiq eshiklar kuni uyushtirilib, harbiy qismlarda qurol-aslaha va harbiy texnikalar namoyish etildi. Tinchligimiz posbonlari bilan uchrashuvlar o'tkazildi.

Viloyat o'g'il-qizlarining eng sevimli maskanlaridan biriga aylangan yangi bog'da tashkil etilgan bu galgi festival yoshlarda katta qiziqish uyg'otdi. Ular ko'rgazmadan o'rin olgan harbiy texnika va qurol-yarog'lar bilan tanishdi. Harbiy xizmatchilar bilan dildan suhbatlashib, ularning jasoratga to'la hayotlari haqida qiziqarli va ibratli ma'lumotlarga ega bo'lishdi.



# Vatan ne buyursa, ado etgaymiz...



**Habib YUSUFIY**

## VATAN ISHQI

Vatan ishqil dilimda jo'shqin buloq,  
Qalbm tutar Vatan so'ziga quloq.

Vatanni kuylayman, bag'riga diyor  
Onadek oldi-yu, etdi baxtiyor.

Vatan jonim mening, jahonim mening,  
Vatan bog'im mening, bo'stonim mening.

Davrimiz ajoyib davr erur, qutlug',  
Tarix bunday davrni ko'rgani ham yo'q.

Kaykovus davrini o'tkazgan jahon,  
Bu kabi zamanni ko'ribdi qachon?!

Bu bo'ston qayda bor, dilbar-u xurram?  
Porloq quyoshidan munavvar olam.

Bu zamon bag'ridan o'sgan navnihol,  
Vatan ardog'ida topibimiz kamol.

Vatan uchun jonni fido etgaymiz,  
Vatan ne buyursa, ado etgaymiz.

Makkor dushman bizga hamla etsa gar,  
Ham g'avg'o ko'tarsa o'shal fitnagar,

Ona-Vatan uchun boshlar bo'lsak jang,  
Yov Vatan postida poymol bir chang.



**MIRTEMIR,**  
O'zbekiston xalq shoiri

Roziman, rizoman, o'la-o'lguncha  
Xalqim deb o'ldim.  
Xalqim nima bo'lsa, men o'sha bo'ldim,  
Yuragim, bo'g'ilma, o'rtanma buncha!

O'zimga xiyonat qildim-u aksar,  
Xalqimga xiyonat o'ylagan yo'q.  
Mening yuragimni teshib o'tdilar  
Xalqimga otilgan talay-talay o'q.

Qancha yo'llar bosdim, gohida toldim,  
Lekin xalq nomiga yuqtirmadim gard.  
Faryod solar chog'da jim bo'la oldim,  
Xalqim dardi edi dil o'rtagan dard.

Xalqim etagida yetdim voyaga,  
Xalq bilan kuldim.  
Bardoshim so'z bermas, deyman, qoyaga...  
Roziman, o'lguncha xalqim deb o'ldim.



**UYG'UN,**  
O'zbekiston xalq shoiri

## VATAN HAQIDA QO'SHIQ

Vatan – ona so'zi naqadar laziz!  
Sensan har narsadan mo'tabar, aziz,  
Hurmatini saqlar har bir o'g'il, qiz,  
Muqaddas, mo'tabar, ulug' Vatanim,  
Sharaf, shonlarga to'lug' Vatanim,  
O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan.

Ishqing harorati qonimizdadir,  
Mehring dilimizda, jonimizdadir,  
Janglarda xayoling yonimizdadir,  
Ishqi zo'r janglarda qo'llagan Vatan,  
Bizni saodatga yo'llagan Vatan,  
O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan.

Sen najot manzili, tarixning faxri,  
Ozodlik dengizi, saodat nahri,  
Qo'yingda insonning ochilur bahri,  
Quyoshdek olamga nur sochgan Vatan,  
Hayot gulshanida gul ochgan Vatan,  
O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan.

Toleing baxt erur, yo'ldoshing zafar,  
Hurlik bo'stonidir bag'ring sarbasar,  
Toshlaring oltindir, tuproqlaring zar,  
Baxtiyor elimning gullagan bog'i,  
Ezgulik manbayi, shodlik bulog'i,  
O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan.

Senda qahramonlik, sharafdir yumush,  
Buloqlaring sharbat, suvlaring kumush,  
Shifo baxsh etuvchi sof havolar xush...  
Bahor misoligim go'zal Vatanim,  
Gulshanim, gulzorim, bog'im, chamanim,  
O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan.

Ko'ksingda barq urar zafar quyoshi,  
Senda majaqlangan ko'p yovning boshi,  
Napoleon qochgan ko'l bo'lib yoshi,  
Yovni doim yengib o'rgangan Vatan,  
Zafar nurlariga burkangan Vatan,  
O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan.

“Yov keldi, qo'zg'al!” deb chorlasang yana,  
Miltig'im qo'limda, tayyorman, mana,  
So'nggi jangga kirgum sen uchun, ona,  
Shubhasiz, yanchilar, toptalar g'anim,  
Muqaddas Vatanim, jondan sevganim,  
O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan.

Qonga – qon! Jonga – jon! Bermaymiz omon,  
Odamxo'rlar bo'lar yer bilan yakson,  
Chunki er yigitlar senga posbon,  
Senikidir zafar, Vatanim, jonim,  
Davlatim, savlatim, shavkatim, shonim,  
O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan.



**Asqad MUXTOR,**  
O'zbekiston xalq yozuvchisi

## ULAR ULGURDILAR

Ne-ne savob topib, ne gunoh etdi  
To'qsonida tetik, hayot bo'lganlar.  
Hech narsaga ulgur olmay ketdi  
Yigirma yoshida halok bo'lganlar.

Yo'q, yo'q, ulgur dilar yosh bo'lsalar ham,  
Inson qodir bo'lgan eng buyuk ishga:  
Ular ulgur dilar eng muqaddas dam  
O'zni Ona yurtga qurbon qilishga.



**Sharof RASHIDOV**

## VATAN ISHQI

Erta tongda ufqdan boqar,  
Sochin tarab nurafshon quyosh.  
Unga suq-la termilar bashar,  
Chunki quyosh biz bilan tengdosh.

Bizga jilva qilganday yulduz,  
Nozlanadir baxtim tongida.  
Posbonimiz kecha-yu kunduz,  
Ishqi yangrar qalb ohangida.

Saodatim nurday tovlanur,  
Bizga boqqan zavq ila Vatan.  
Unga mening muhabbatim zo'r,  
Fido bo'lsin unga jon-u tan.

Olov yoshlik uradir javlon  
Keng fazoni qamal qilishga.  
Vatan ishqil undar begumon  
Lochinlarday uchqur bo'lishga.

Mana shunday bu bizning hayot,  
Kundan kunga olg'a ketajak.  
Ilhomimga berib zo'r qanot,  
Mamlakatim gullar tutajak!





## Taekvondo

# 100 TAEKVONDOCHILARIMIZ FOIZLIK NATIJAGA ERISHDI

Xitoyda taekvondo WT bo'yicha "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlariga yo'llanma beruvchi litsenzion musobaqa bo'lib o'tdi. Unda qatnashgan sportchilarimiz Jasurbek Jaysunov hamda Ozoda Sobirjonova o'z vazn toifalaridagi bahslarni muvaffaqiyatli o'tkazdi. Taekvondo WT bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi esa o'z oldiga qo'yilgan vazifani maksimal darajada bajardi va bunda Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillarining ulushi katta bo'ldi.



Avvalo shuni ta'kidlash joiz, 2023-yil oxirida, ya'ni 27-dekabr kuni Butunjahon taekvondo federatsiyasi (WT) "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari uchun litsenzion reyting ochkolarini jang'arish davri yakunlangani va u orqali yo'llanmani qo'lga kiritgan sportchilar nomini e'lon qilgandi. Unga ko'ra, O'zbekiston terma jamoasining ikki nafar a'zosi, ya'ni Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakillari Ulug'bek Rashitov (-68 kg) va Svetlana Osipova (+67 kg) "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlariga yo'llanma olgandi. Qayd etish joiz, bu yurtimiz taekvondosi uchun o'ziga xos tarixiy voqelik bo'lgandi. Chunki taekvondochilarimiz birinchi bor reyting orqali Olimpiadaning ikkita yo'llanmasiga ega bo'ldi. O'z navbatida, qizlarimiz ham ilk marotaba reyting orqali Olimpiada ishtirokchisiga aylandi. Shu bois reglamentga muvofiq, O'zbekiston terma jamoasi uchun Xitoyning Tayan shahrida o'tadigan qit'aviy litsenzion turnirga 1+1 shaklida, ya'ni 1 nafardan erkak va ayol sportchilarni ro'yxatdan o'tkazish huquqi taqdim etildi. Taekvondo WT bo'yicha terma jamoamiz murabbiylarining qaroriga binoan Ozoda Sobirjonova (-67 kg) hamda MVSM a'zosi Jasurbek Jaysunov (-80 kg) tanlandi va ular "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlariga yo'llanma taqdim etiladigan saralash musobaqasida qatnashish uchun Xitoyga yo'l oldi.

XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlari uchun taekvondo WT bo'yicha Osiyo litsenzion turniri Xitoyning Shandon provinsiyasida joylashgan Tayan shahridagi "Taishan International" majmuasida o'tkazildi. O'zbekiston terma jamoasining ikki nafar a'zosi birinchi kun doirasida dayanga chiqdi va ikkisi ham o'zlariga bildirilgan ishonchni oqlashdi. Xususan, Ozoda Sobirjonova Olimpiada yo'llanmasi uchun kechgan bahsda vyetnamlik Thi Bakni mag'lubiyatga uchratdi. MVSM a'zosi Jasurbek Jaysunov esa saralash bahslarida Kambodja, Suriya vakillaridan ustun keldi. Olimpiya yo'llanmasi uchun kechgan hal qiluvchi jangda esa iroqlik Saif Tohirni mag'lub etdi. Shu tariqa, avval 2 ta yo'llanmaga ega

bo'lib turgan taekvondo WT bo'yicha O'zbekiston terma jamoasining "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari uchun yo'llanmalari soni Osiyo litsenzion turmidan so'ng 4 taga aylandi. Qayd etish lozim, "Tokio – 2020" yozgi Olimpiya o'yinlarida taekvondochilarimiz to'liq tarkibda ishtirok etgan edi. Mazkur 100 foizlik natija bu safar ham takrorlandi.

### XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlarida yurtimiz sport sharafigini himoya qiladigan taekvondochilar:

- 68 kg: Ulug'bek Rashitov (MVSM)
- 80 kg: Jasurbek Jaysunov (MVSM)
- 67 kg: Ozoda Sobirjonova
- +67 kg: Svetlana Osipova (MVSM)

Ta'kidlash joiz, yurtimiz taekvondosi tobora rivojlanib, uning xalqaro maydondagi nufuzi yil sayin oshmoqda va bu xorijlik mutaxassislar tomonidan ham bot-bot e'tirof etilyapti. Xususan, ketma-ket ikki jahon chempionati 4 ta medal bilan yakunlangani ham O'zbekiston terma jamoasining nafaqat Osiyo, balki dunyo taekvondosida kuchlilar qatorida e'tirof etilishini ifodalaydi. Ushbu muvaffaqiyatlarga erishishga armiyamiz sportchilari katta ulush qo'shmoqda. Xususan, taekvondo (WT) bo'yicha MVSM vakillari 2022-yili O'zbekiston milliy terma jamoasi tarkibida xalqaro miqyosdagi musobaqalarning 17 ta oltin, 6 ta kumush va 14 ta bronza, jami 37 ta medalini qo'lga kiritgan edi. 2023-yilgi mavsumda bu ko'rsatkich son va sifat jihatidan yanada yaxshilandi. Armiyamiz taekvondochilari bu safar xalqaro maydondagi musobaqalarning 19 ta oltin, 8 ta kumush va 16 ta bronza, jami 43 ta medaliga sazovor bo'lishdi. Bu muvaffaqiyatlarga Ulug'bek Rashitov (-68 kg), Niyoz Po'latov (-63 kg), Jasurbek Jaysunov (-74 kg), Nikita Rafalovich (-80 kg) va Svetlana Osipova (+67 kg) kabi sportchilar katta ulush qo'shishdi. Ular dunyo birinchiligi, XIX Osiyo o'yinlari, qit'a chempionati va boshqa bir qator xalqaro musobaqalarda ketma-ket sovrindor bo'lib, bu borada MVSMning boshqa sportchilariga namuna bo'lishdi.

## SHOHSUPA

(xabarlar)



### DZYUDO



22–24-mart kunlari Gruziya poytaxti Tbilisi shahrida dzyudo bo'yicha "Katta dubulg'a" turniri bo'lib o'tadi. Dunyoning 79 mamlakatidan 472 nafar sportchi ishtirok etishi kutilayotgan mazkur musobaqaga O'zbekiston erkaklar va ayollar terma jamoasi yirik tarkibda, ya'ni safidan MVSM vakillari ham o'rin olgan 18 nafar dzyudochi bilan yo'l oldi. Qayd etish joiz, ushbu turnirda o'z vazn toifasida g'alaba qozongan sportchi jahon va "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari reytingi uchun 1 000 ochkoga ega bo'ladi.

### TOG' CHANG'ISI



Xitoyda o'tkazilgan Osiyo chempionatida O'zbekiston sport delegatsiyasi 3 ta medalga egalik qildi. Shiddatli o'tgan bahslarda, ayniqsa Respublika oliy sport mahorati maktabining tog' chang'isi bo'limi sportchilari Medet Nazarov va Sabina Rejepova o'z mahoratlarini namoyish etishdi. Ular musobaqaning slalom gigant dasturida bitta oltin va 2 ta kumush medalga sazovor bo'lishdi.

### TRAMPLIN



Niderlandiyaning Alkmar shahrida trampolin bo'yicha jahon kubogining ikkinchi bosqich bahslari bo'lib o'tdi. Unda ishtirok etgan O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Mirshohid Hasanboyevning finaldagi chiqishi 57.095 ball bilan baholandi va kumush medalni qo'lga kiritdi. Jahon kubogining sinxron sakrash bahslarida ishtirok etgan Mirshohid Hasanboyev va Yahyobek Mo'minov juftligi esa bellashuvlarni 7-o'rinda yakunladi.

### REGBI



Malayziyada regbi bo'yicha "Borneo Sevens" xalqaro turniri bo'lib o'tdi. Unda Belgiya, Avstraliya, Hindiston, Malayziya, Indoneziya, Yangi Zelandiya, Singapur va O'zbekiston terma jamoalari ishtirok etdi. Hal qiluvchi bahsda mezbonlarga imkoniyatni boy bergan O'zbekiston ayollar terma jamoasi xalqaro turnirning kumush medali bilan taqdirlandi. Yigitlarimiz esa turnirni to'rtinchi o'rin bilan yakunlashdi.

### PARA SUZISH



Italiyada o'tkazilgan para suzish bo'yicha jahon seriyasiga kiruvchi nufuzli musobaqada hamyurtimiz Firdavsbek Musabekov muvaffaqiyatga erishdi. Paralimpiyachimiz turnirning erkaklar o'rtasidagi 100 metrga brass usulida suzish bahslarida qatnashib, kumush medalga sazovor bo'ldi. Ushbu dasturning yoshlar o'rtasidagi bahslarida esa yana bir vakilimiz Azizbek Boynazarov bronza medalni qo'lga kiritdi.

### PROFESSIONAL BOKS



Butunjahon boks tashkiloti (WBO) tomonidan mart oyi uchun yangilangan reyting e'lon qilindi. Hamyurtimiz Shahram G'iyosov o'tgan oy yarim o'rta vazn toifasida reytingning 3-pog'onasidan joy olgandi. Eliminator jangida g'alaba qozongani bois u bu safar 2-o'ringa ko'tarildi. O'z vazn toifalarida shiddatli jang o'tkazib kelayotgan iste'dodli bokschilarimiz Olimjon Nazarov (5-o'rin), Murodjon Ahmadaliyev (6-o'rin), Hasanboy Do'smatov (6-o'rin), Bektemir Meliqo'ziyev (7-o'rin) va Muhammad Shexov (7-o'rin) ham WBOning yangilangan reytingida kuchli o'nlikdan joy olgan. Yengilmas charm qo'lqop ustamiz Bahodir Jalolov esa eng og'ir vaznda 15-pog'onani band etib turibdi.





# Vatan sha'nin ko'tarmoq — sharaf

Intiluvchan qahramonimiz mamlakat chempionatlarida milliy kurash bo'yicha 3 marotaba, dzyudo bo'yicha 6 marotaba g'alaba qozongan. Shuningdek, 2023-yilda dzyudo bo'yicha O'zbekiston chempionatida hamda noyabr oyida huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari o'rtasida o'tkazilgan sambo musobaqasida faxrli 1-o'rinni egallashga muvaffaq bo'lgan.

yo'nalishda 2 ta oltin, 6 ta kumush va 6 ta bronza medalni, "layt" yo'nalishida esa 2 ta oltin, 5 ta kumush, 8 ta bronza medalni qo'lga kiritgan holda, jami 29 ta sovrinli o'ringa egalik qildi.

Bahslarning "layt" yo'nalishida 1-o'rinni egallagan kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Shohruxbek Irisqulov ham bolaligidan sportni sevgani va universal jang turi bilan muntazam shug'ullanib, o'z ustida tinimsiz

Vatan sha'nini ko'tarmoqni sharaf deb bilgan Dostonbek universal jang va sambo bo'yicha jahon chempionatlari sovrindori, dzyudo va sambo bo'yicha Osiyo kubogi hamda Osiyo o'yinlarining 4 karra sovrindori, shuningdek xalqaro turnirlarning 3 karra sovrindori hisoblanadi.

Harbiy sportchi 2024-yilni ham samarali boshlab, fevral oyida Boku shahrida o'tkazilgan dzyudo bo'yicha "Katta dubulg'a" xalqaro turnirida 3-o'rinni egallagan bo'lsa, mart oyida ushbu sport turi bo'yicha poytaxtimizda bo'lib o'tgan "Katta dubulg'a" xalqaro turnirida O'zbekiston milliy terma jamoasi tarkibida 60 kg vazn toifasida ishtirok etib, jahonning 70 ta davlatidan kelgan 500 nafardan ortiq sportchi ichida faxrli 1-o'rinni egalladi.

Final bahsida raqibim jahon chempionati sovrindori, gruziyalik Giorgi Sardalashvilini mag'lubiyatga uchratib, oltin medalga sazovor bo'ldim. Uni qo'lga kiritishim faoliyatimdagi muhim g'alaba bo'ldi va menga jahon hamda Parij – 2024 Olimpiadasi reytingi uchun 1 000 ochkoni taqdim etdi. Endilikda mazkur g'alabam orqali dunyo sportchilari reytingida 24-o'rindan 16-o'ringa ko'tarilib, joriy yilda Fransiyaning Parij shahrida bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlarida ishtirok etish imkoniyatim yanada ortdi, – deydi Doston Ro'ziyev.

Ta'kidlash kerakki, sarhadlarimiz posbonlari orasida bunday mahoratli sportchilar ko'pchilikni tashkil etadi. Xususan, joriy yilning mart oyida Toshkent shahrida sportning universal jang turi bo'yicha o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida 18 ta terma jamoa tarkibida 600 nafardan ortiq sportchi o'zaro bellashdi. Quvonarlisi, mazkur chempionatda DXX Chegara qo'shinlari terma jamoasi vakillari ham faol qatnashib, "klassik"

ishlagani bois bunday yuqori natijalarni qo'lga kiritmoqda.

– Sport insondan sabr-toqat va chidamlilikni talab qiladi. Qolaversa, tinimsiz mashqlar sportchini toblab, har qanday sharoitda ham g'alaba sari olg'a intilish uchun yuksak iroda va matonat sohibiga aylantirishga xizmat qiladi. Ayni shu sababdan bo'lsa kerak harbiylik va sport bir-birini to'ldirib, doimiy rivojlantirib boradi, – deydi Shohruxbekning o'zi.

Yuqorida ta'kidlangan universal jang musobaqasining har ikki "klassik" va "layt" yo'nalishlarida faxrli 1-o'rinni egallagan yana bir sportchi, III darajali serjant Ma'mura Ashurovaning iqtidorini ham alohida e'tirof etish o'rinli.

Samarqand viloyatining Ishtixon tumanida tug'ilgan bu shijoatli qiz 2011-yilda O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutini tamomlagan. Intiluvchan qahramonimiz ko'plab milliy va xalqaro miqyosdagi musobaqalarda ishtirok etib, Vatanimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'tarish sharafiga muvaffaq bo'ldi. Albatta, bu uning tinimsiz mehnati va jonkuyar ustozlarining ko'magi mahsulidir.

Ma'muraning izdoshi, III darajali serjant Sabohat Xolmatova ham musobaqaning har ikki yo'nalishida faxrli 1-va 2-o'rinlarni egallashga muvaffaq bo'ldi. Muhimi, harbiy libosdagi bu matonat malikalarimiz harbiy xizmatni ham, sportni ham, jamiyatdagi ayollik, onalik va bekalik vazifalarini ham o'z o'rnida, bekam-u ko'st bajarib, ko'pchilikka o'rnak bo'lib kelmoqda.

Biz, hayotini yurt tinchligiga bag'ishlagan holda o'z ustida ishlashdan, izlanishdan tinmaydigan bu shijoat sohibalariga yanada yangi zafar va omadlar yor bo'lishini tilab qolamiz.

**Mayor Farida BOBOJONOVA**  
DXX Chegara qo'shinlari

Bugun yurt himoyasida sobit turgan baquvvat va irodali harbiylarimiz jangovar xizmat vazifalarini to'laqonli ado etish bilan bir qatorda jismoniy tayyorgarlik hamda sport mashg'ulotlarini ham chambarchas, uyg'un holda olib borayotganlari sabab har ikki sohada ham yuqori natijalarni qo'lga kiritib kelmoqda.

Xususan, Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari safida sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlayotgan kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Doston Ro'ziyev ham ana shunday iqtidorli harbiy sportchilardan biri.

Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahrida tug'ilgan qahramonimiz, bolaligidan juda g'ayratli va shijoatli bo'lgan. Maktabda o'qib yurgan kezaridayoq jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga o'zgacha qiziqish va ishtiyoq bilan qatnashgan. O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universitetiga o'qishga kirgan Doston sambo, kurash, dzyudo, djiu-djitsu hamda universal jang sport turlari bilan shug'ullanib, ko'plab musobaqalarda qatnashish va yuqori natijalarga erishish sharafiga muvaffaq bo'ldi.

Bolalikdan harbiylikni havas qilgan qat'iyatli o'g'lon Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari safida o'z xizmatini boshlab, bir necha yildan buyon yurt tinchligini himoya qilish bilan birga, o'zi sevgan sport turlari bilan shug'ullanishni ham kanda qilmay kelmoqda.




# KURASH MAYDONIDA HAM VATAN SHA'NI HIMOYA QILINADI

Davlatimiz rahbari tomonidan 4-mart kuni imzolangan qaror 2024-yilgi Navro'z umumxalq bayrami mamlakatimizda "Olam nurga to'lsin sen bilan, Navro'z!" degan bosh g'oya asosida umumxalq sayillari shaklida ko'tarinki ruh va yuqori darajada nishonlanishiga keng imkoniyatlar yaratdi.

Joylarda Navro'z umumxalq bayramining barcha tadbirlari milliy qadriyat va an'analar hamda zamonaviy tajribalar asosida yuqori saviyada, ommaviy sayillar shaklida tashkil etilib, davlat muassasalari, tashkilotlar, mahallalar, kuch tuzilmalari harbiy qismlarida o'tkazilayotgan milliy

qiziqarli bahslarida 15 ta jamoaning 300 nafardan ortiq harbiy xizmatchi sportchi ishtirok etib, erkaklar va ayollar o'rtasidagi musobaqalarning barcha g'olib va sovrindorlari aniqlandi.

Musobaqalar dastlabki kun milliy kurash bellashuvlari bilan boshlandi. Okruglar va o'z jamoalari



sport musobaqalari, sumalak bazmi, uloq-ko'pkari bellashuvlari buning yaqqol misolidir. Yangilanish fasli bahoriy bayram tantanalari marafoni Mudofaa vazirligi tizimida ham o'z aksini topib, harbiy xizmatchilar turli sport musobaqalari, "Yashil makon" umummilliy loyihasida, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlariga qaratilgan umumxalq hasharlarida faol ishtirok etayotganini ta'kidlash o'rinli.

"Forish" tog' poligoni bazasida Mudofaa vazirligi qo'shinlari o'rtasida Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlangan milliy va amaliy sport turlari bo'yicha yakunlangan musobaqalar ham shular jumlasidandir. Milliy kurash, tosh ko'tarish, pichoq uloqtirish va armiya biatlonining

sharafini munosib himoya etgan harbiy xizmatchilar bahslar davomida shaxsiy hamda jamoaviy birinchilik uchun kurash olib bordi. Sovrinli o'rinlar uchun da'vogarlik qilgan qatnashchilar orasida Xalqaro armiya o'yinlari, O'zbekiston, Osiyo, jahon chempionatlari sovrindorlari borligi sababli har bir bahs murosasiz bellashuvlarga boy bo'ldi. Bahslarda Artyom Shturbabin, Bahridin Ismoilov, Nadejda Dusanova, Artem Chernishev kabi taniqli sportchilarning ishtirokchi va hakam sifatida qatnashishi



musobaqalarning yanada murosasiz o'tishini ta'minladi.

Barcha musobaqalarda oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlari ham qatnashganini alohida ta'kidlash o'rinli. Ayniqsa, 3 kilometrlik masofada tashkillashtirilgan armiya biatlioni bahslarida kursantlar serjant va ofitserlar bilan tengma-teng kurash olib borishga harakat qilgani tahsinga loyiq. Masofani bosib o'tishda to'siqlardan sakrab o'tish, arqonga tirmashib chiqish, pichoq va granata ulotirish, TOZ-3 miltig'idan 50 metr uzoqlikdagi nishonlarga qarata aniq o'q uzish kabi mashqlarni bajarish jarayonida bo'lg'usi ofitserlar finish chizig'iga qadar murosasiz kurash olib borishdi. Milliy kurash va tosh ko'tarish bahslarida esa Qurolli Kuchlar akademiyasi kursantlari sovrindorlar qatoridan joy olishga muvaffaq bo'lishdi. Umuman olganda, Mudofaa vazirligi qo'shinlari o'rtasida Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlangan milliy va amaliy sport turlari bo'yicha yakunlangan musobaqalar barcha harbiy

adashmagan ekanman, – deydi Shimoli-g'arbiy harbiy okrug vakili kichik serjant Fazliddin Majidov. – Har ikki mashq – dast va siltab ko'tarishda Mudofaa vazirligi rekordini yangiladim. Tosh ko'tarish va kurashdan tashqari chavandozlikda ham qator yutuqlarga erishganman. 2020-yilgi Xalqaro armiya o'yinlarining otliq marafon bahslarida har xil to'siqli yo'lakni bosib o'tish yo'nalishida musobaqa rekordini yangiladim. Bundan tashqari Qozog'istonda tosh ko'tarish bo'yicha 3-o'rin, milliy kurashda Mudofaa vazirligi birinchiligida 79 kg vaznda 1-o'rinni egallaganman.

– Musobaqalar Navro'zga xos haqiqiy bahoriy kayfiyatda o'tdi, desam, adashmayman. Negaki tashkilotchilar birinchi marta ayollar o'rtasida pichoq ulotirish bahslarini tashkillashtirib, milliy armiyamiz safida xizmat qilayotgan xotin-qizlarning imkoniyatlari qanday ekanligini amalda

sinovdan o'tkazdi. Musobaqaga kelishimizdan bir oy avval jamoamizdagi yigitlardan pichoq ulotirishning sir-asrorlarini o'rgandim, – deydi Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi vakili kichik serjant Nargiza Namozova. – Yakuniy natijaga ko'ra, birinchi o'rinni egalladim. Mashqni 3, 5, 7 metr masofadan turgan va tizzalab o'tirgan holda bajarishning o'ziga yarasha qiyinchiliklari bo'lishini qisqa vaqt ichida o'zlashtirib olishimni kutmagandim.

– Milliy kurash musobaqasining 60 kg vazn toifasida 1-o'rinni egalladim. Hal qiluvchi bellashuvda Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug sharafiga himoya qilgan Faxriddin Qurbonov ustidan qiyinchilik bilan g'alaba qozondim. Faxriddin juda kuchli raqib. Mudofaa vazirligi miqyosidagi musobaqalarda u bilan ikkinchi marta finalda ro'baro' kelishim. Hozircha raqibimga ikki marta ham imkoniyatni boy bermadim. O'z vaznimda O'zbekiston



championi ekanligimni amalda isbotlaganimdan mamnunman, – deydi Toshkent harbiy okrug vakili kichik serjant Ramazon Botirov.

**Pichoq ulotirish.** Shaxsiy birinchilik. Erkaklar. Kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Abror Narziyev (*Toshkent harbiy okrug*). Ayollar. Kichik serjant Nargiza Namozova (*Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi*).

**Jamoaviy birinchilik.** 1-o'rin – Toshkent harbiy okrug. 2-o'rin – Shimoli-g'arbiy harbiy okrug. 3-o'rin – Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi.

xizmatchilar uchun o'z jismoniy qobiliyatlarini yana bir marta sinovdan o'tkazish imkoniyatini berdi. Bu imkoniyatdan oqilona foydalanganlar yakunda sovrinli o'rinlarni egalladilar va bu orqali harbiy xizmatchiga xos jismoniy hamda jangovar tayyorgarlik darajasini amalda ko'rsatib berishdi. Musobaqalar davomida har bir qatnashchi or uchun, jamoasi sharafiga uchun, eng muhimi, Vatan sha'ni uchun kurash olib borganligi ularning xatti-harakatlarida yaqqol kuzatildi.

– Musobaqaga kelishdan oldin menda milliy kurash yoki tosh ko'tarish musobaqasining birida qatnashish imkoniyati bor edi. Jamoamiz bilan kelishgan holda tosh ko'tarish bahslarining 70 kg vazn toifasida qatnashishga qaror qildim. Ko'rib turganingizdek, tanlovda



Muallif suratga olgan

**Armiya biatlioni.** Shaxsiy birinchilik. 1-o'rin – kichik serjant Roman Safarov (*Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi*). 2-o'rin – kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Abror Narziyev (*Toshkent harbiy okrug*). 3-o'rin – kichik serjant Asadbek G'aniyev (*Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug*).

**Jamoaviy birinchilik.** 1-o'rin – Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug. 2-o'rin – Shimoli-g'arbiy harbiy okrug. 3-o'rin – Janubiy operativ qo'mondonligi.

**Milliy kurash.** Jamoaviy birinchilik. 1-o'rin – Shimoli-g'arbiy harbiy okrug. 2-o'rin – Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi. 3-o'rin – Toshkent harbiy okrug.

**Tosh ko'tarish.** Jamoaviy birinchilik. 1-o'rin – Shimoli-g'arbiy harbiy okrug. 2-o'rin – Toshkent harbiy okrug. 3-o'rin – Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug.

**Barcha yo'nalishlar bo'yicha jamoaviy birinchilik.** 1-o'rin – Shimoli-g'arbiy harbiy okrug. 2-o'rin – Toshkent harbiy okrug va Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi. 3-o'rin – Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug.

Asror RO'ZIBOYEV







## Uchrashuv

## HAR TOMONLAMA QULAY VA MANFAATLI

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotida Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi va Litva Respublikasining "EURODAS" kompaniyasi vakillari ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Unda "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov, xorijiy kompaniyaning vitse-prezidenti Roman Kolenkov va Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining mas'ul xodimlari Litvada vaqtincha haydovchilik va boshqa texnik kasblarda ishlash istagida bo'lgan mamlakatimiz fuqarolarini "Vatanparvar" tashkilotining o'quv muassasalarida tayyorlash masalalari muhokama qilindi.

Muhokama chog'ida "EURODAS" Yevropada eng yirik logistika kompaniyasi hisoblanishi, bugungi kunda Litvada 11,5 mingta haydovchi va texnik xizmat ko'rsatish sohasi mutaxassislariga ehtiyoj sezilayotganligi ma'lum qilindi. Shuningdek, ushbu ehtiyojni "Vatanparvar" tashkiloti imkoniyatlaridan kelib chiqqan

holda qondirish har tomonlama qulay va manfaatli ekanligi e'tirof etildi. Ushbu sa'y-harakatlar, o'z navbatida, respublikamiz bo'ylab yuzlab fuqarolarning bandligi ta'minlanishiga zamin yaratishi ta'kidlandi.

Uchrashuv so'ngida Litvada yuk mashinasi haydovchisi va yuqori talabga ega texnik kasb mutaxassislari sifatida ishlash istagidagi o'zbekistonliklarni "Vatanparvar" tashkilotining respublika bo'ylab faoliyat yuritayotgan 200 dan ortiq o'quv muassasasida o'qitish ishlarini



Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi vositachiligida amalga oshirishga kelishib olindi.

**O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati**

## So'ragan edingiz

## HUQUQIY MASLAHAT



**Savol:** Bir yillik armiyaga qizlar ham borsa bo'ladimi?

**Javob:** Aholi orasida "bir yillik armiya" iborasi bilan ishlatiladigan muddatli harbiy xizmatga xotin-qizlar chaqirilmaydi.

Qonunga ko'ra, tinchlik davrida oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida muddatli harbiy xizmatga (safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga ham) o'n sakkiz yoshdan yigirma yetti yoshgacha bo'lgan, salomatligiga ko'ra Qurolli

Kuchlar safida harbiy xizmatni o'tashga yaroqli erkak fuqarolar chaqiriladi.

Ma'lumot uchun: muddatli harbiy xizmat chaqirilish yoshidagi fuqarolarning oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida, shuningdek muqaddam harbiy xizmatni o'tamagan ofitserlarning qonunchilikda belgilangan muddat mobaynida Qurolli Kuchlar safidagi majburiy xizmatidir.

Uning muddati kalendar hisobida o'n ikki oy.

O'tash tartibi qonunchilik bilan belgilanadi.

**O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi axborot xizmati**

## "Men vatanparvarman"

## O'QUVCHI-QIZLAR BELLASHDI

Harbiy prokuratura tomonidan olis hududlardagi umumta'lim maktablari o'quvchi-qizlari o'rtasida o'tkazilayotgan "Men vatanparvarman" loyihasining Surxondaryo viloyati bosqichi yakunlandi.

Uch kunlik tanlovlarda Termiz tumanidagi "Gulbahor" va Denov tumanidagi "Sina" mahallalari, shuningdek Denov shahridagi 18, 60 va 82-sonli umumta'lim maktablari o'quvchi-qizlari qamrab olindi.

Ularda qizlar vatanparvarlik, buyuk xalqimizning merosidan faxrlanish, qonunlarga hurmat, huquqbuzarliklarga qarshi murosasizlik ruhidagi bilimlarini namoyon etishdi.

"Vatanparvarlik mening tasavvurimda" shiori ostida erkin mavzularda kechgan ijodiy chiqishlar tadbiriga o'zgacha ruh berdi.



Bosh prokuror o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori B. Kudratxodjeyev qizlarning o'qishlariga omad tilab, g'olib va sovrindorlarga O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori kubogi, diplom va esdalik sovg'alarni topshirdi.

**Adliya podpolkovnigi Gulchehraxon TURSUNOVA, Respublika Harbiy prokurorining katta yordamchisi**

## Uch avlod uchrashuvi

## Faxriylarning hayotiy o'gitlari

Navoiy harbiy prokuraturasi, Mudofaa vazirligi huzuridagi jamoatchilik kengashi viloyat hududiy bo'linmasi va boshqa mutasaddilar hamkorligida "Jasorat maktabi" o'quv yig'iniga jalb etilgan yoshlar bilan "Ajdodlar jasorati – yoshlarga ibrat" mavzusida uch avlod uchrashuvi tashkil etildi.



Unda faxriylar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, yoshlarga yaratilgan sharoit va imkoniyatlar, tinchlik qadri, buyuk ajdodlarimizning qahramonliklari haqida so'z yuritishdi.

Shuningdek, o'zlarining harbiy xizmat davrlariga oid xotiralari va hayotiy tajribalari bilan o'rtoqlashdi.

Vatanparvarlik xalq xizmati yo'lida har qanday mashaqqatni yengib o'tish va marralarni zabt etishning asosi ekanligini ishtirokchilar

muloqot mohiyatidan yaqqol anglab yetganliklari tashkilotchilarga mamnuniyat bag'ishladi.

**Adliya kapitani Sherzod UNGAROV, Navoiy harbiy prokuraturasi tergovchisi**



# Qadimiy o'yinlar tarixi

Yillar davomida mahalla-yu guzarlarda, keng qir-adirlarda nishonlanib kelinayotgan Navro'z bayramini xalq o'yinlarisiz tasavvur qilish qiyin. Milliy kurash, tosh ko'tarish, ko'pkari va dorbozlarning dor ustida o'yin ko'rsatishlari barchaga birdek manzur. Ammo bunday o'yinlarning kelib chiqish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, asrlar davomida sport musobaqasiga aylangan ushbu o'yinlar qachonlardir harbiy mudofaa hamda hujum vazifasini o'tab, hayot-mamot masalasini hal qilgan ekan.

## ARQON TORTISH

Arqon tortish qadimiy o'yinlardan biri bo'lib, hozirgi vaqtda ham sport turi sifatida saqlanib kelmoqda. Lekin bu uzoq o'tmishlarda shoh va podshohlarning qonli o'yinlaridan biri bo'lgan. Vikinglar hayvon terisidan to'qilgan arqonni ikki guruhga bo'linib tortishgan. Faqat hozirgidan "ozgina" farqli ravishda arqon "sportchi"larning qo'llariga bog'langan va o'rtada cho'g' to'plangan chuqur bo'lgan. Kuchsizlar mag'lubiyatni tan olish orqali kulgiga qolishlari yoki otash to'la chuqurga ravona bo'lishlari kerak bo'lgan. Sarkardalar bunday musobaqalar orqali askarlarning diydasi qotirish bilan birga o'z ko'ngilxushliklarini ham amalga oshirgan.

Zamonaviy xalqaro arqon tortish federatsiyasi 1960-yilda tuzilgan bo'lib, 1981-yildan terma jamoalar o'rtasida jahon chempionatlari o'tkazib kelinadi. Albatta, yuqoridagidek qoidalardan farqli o'laroq o'yin qoidalari batamom o'zgartirilgan.

Yurtimizda ham bu sportga bo'lgan qiziqish juda yuqori bo'lib, Navro'z ayyomi arafasida qishloq va mahalla birinchiliklari muntazam o'tkazib kelinadi. Arqon tortish jamoaviy o'yin bo'lgani bois harbiy xizmatchilar o'rtasida ham keng ommalashgan.

## TOSH KO'TARISH

Sport musobaqalari orasida eng qadimgilaridan biri og'irlikni ko'tarishdir. Shu musobaqa bois barcha xalqlarda qahramonlar jasorati haqida ertaklar, afsonalar, rivoyat va dostonlar to'qilgan hamda og'izdan og'izga o'tib yurgan. Yunon ibodatxonalaridan birida topilgan miloddan avvalgi VI asrga oid toshda "Tolosning og'li Bibon bu toshni bir qo'li bilan boshi uzra ko'tardi", degan yozuv bor. Mutaxassislar tomonidan tosh vazni o'lchab ko'rilganda uning og'irligi 143 kilogrammga tengligi ma'lum bo'lgan.

Og'ir atletikaga oid birinchi eslatma Shu sulolasi davrida bitilgan ekan. Unda aytilishicha qadimgi Misrda kuchli bo'lish va harbiy qo'shinlarga yollanish uchun og'ir qum to'ldirilgan qoplarni ko'tarib

mashq qilishgan va sinovlardan o'tsagina askarlikka yollangan ekan.

Bugungi kunda yurtimizda ham kuchli atletlarimiz o'z faoliyatini muntazam yuritib kelmoqda. Ulardan biri Mudofaa vazirligi sportchisi kapitan Ruslan Nurudinov. U 2016-yil yozgi Olimpiada va bir necha jahon chempionati g'olibi hamda rekordchisi sanaladi.

## KAMONDAN OTISH

Kamondan otish yoki kamon va o'qlardan foydalanish Afrikada o'rta tosh asrining oxirida rivojlangan. U urush va ovchilikning bir qismi sifatida XIX asr oxirigacha, takrorlanuvchi o'qotar qurollarning ixtiro qilinishi va ko'payishi tufayli eskirganiga qadar muomalada bo'lgan.

Bugungi kunga qadar ma'lum bo'lgan eng qadimgi kamon 1940-yilda Daniyadagi Xolmegard botqog'idan topilgan. Miloddan avvalgi 8000-yilga oid ushbu topilma qarag'aydan yasalgan bo'lib, uning uzunligi 1,5 metr, o'zi esa D shaklida bo'lgan. Bu tipdagi kamondalar bronza davrigacha ishlatilgan, vaqt o'tishi bilan o'rta qismning bo'rtib turgan joyi kamaytirilgan.

Kamondan otish sport turining hozirgi qoidalari XIX asr oxirida ishlab chiqilgan. Olimpiada o'yinlari dasturiga kiritilgandan so'ng ko'p mamlakatlarda keng tarqaldi.

## KURASH

Kurash azaldan o'zbek turmush tarzining uzviy qismi bo'lganligini arxeologik topilmalar, tarixiy qo'lyozmalar

tasdiqlaydi. Qadimgi Baqtriya (O'zbekiston janubi) hududidan topilgan jez davriga oid silindrsimon sopol idishda ikki polvon va ulardan biri ikkinchisini chalayotgani tasvirlangan. Shu davrga mansub boshqa arxeologik topilmada esa polvonlarning Kurash usullarini namoyish qilayotgani aks ettirilgan. Bu noyob topilmalar miloddan 1,5 ming yil ilgari ham kurash ajdodlarimiz turmush tarzining bir qismi bo'lganidan dalolat beradi.

Yunon yozuvchisi Klavdiy Elian (II-III asr) va boshqa tarixiy

@Vatanparvargaxatbot  
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot



butun dunyoga tarqalgan. Dor dastlab past qurilgan, mashqlari ham sodda bo'lgan. Davr o'tishi bilan dor tobora balandroq qurilib, o'yinlari murakkablasha borgan. Dorbozlik o'yinlari avval ochiq maydonlarda, XVIII asr oxiridan esa sirk sahnasida namoyish etiladigan bo'ldi va uning ajralmas qismiga aylandi.

O'zbekistonda dorbozlik qadim tarixga ega. Ba'zi manbalar Amir Temur saroyida ajoyib dor o'yinlari ko'rsatilganini tasdiqlaydi. Dorbozlik O'zbekistonning barcha yirik shaharlarida, ayniqsa Quva, Asakada taraqqiy etgan. O'tmishda o'zbek dorbozlari Xitoy, Hindiston, Afg'oniston, Eron, XVIII-XIX asrlarda Rossiyada o'z mahoratlarini namoyish etganlari to'g'risida ma'lumotlar bor.

XX asrda o'zbek dorbozlik san'atini yangi mazmunda rivojlantirishda va an'analarni davom ettirishda Asaka dorbozlari sulolasining atoqli namoyandasi Toshkanboy Egamberdiyevning xizmati juda katta. U sabab o'zbek dorbozlari repertuariga birmuncha o'zgarishlar kiritildi. Muhofaza vositalaridan foydalanish natijasida dor ustida yangi, murakkab o'yinlar ijro etila boshlandi. Yakkari kishi mashqlari bilan bir qatorda 2, 3, 4 kishi ijro etadigan mashqlar ko'rsatiladigan bo'ldi.

## KO'PKARI

Musobaqa haqidagi birinchi eslatma miloddan avvalgi VII asrda zardushtiylilik davridagi Davan davlatida (hozirgi Farg'ona vodiysi hududi) ro'y berganligi xitoylik sayyohning yozuvlarida uchraydi. Qadim zamonlardan beri inson ajoyib va hayajonli tomoshaga muhtoj edi. Ming yillar davomida ko'pkari o'zining mashhurligi va obro'-e'tiborini yo'qotgani yo'q. Ilgari g'olibga chorva mollari, gilamlar yoki otlar sovg'a qilingan. Hozirda zamonaviy uy-ro'zg'or buyumlari, jihozlar, hattoki avtomashinalar ham sovringa aylanib bormoqda.

Ko'pkari - ta'sirchan tomoshabinning qalbini junbishga keltiradigan hayajonli bellashuv. Tomoshabobligi nuqtayi nazaridan ko'pkari musobaqasini ispan enserrosi va buqalar ishtirokidagi Amerika rodeosi bilan taqqoslash mumkin.

Ko'pkari musobaqasi o'zbek xalqining qadimdan yetib kelgan boy madaniyati, etnosporti bilan yaqindan tanishish uchun yana bir sababdir.

Sherzod SHARIPOV tayyorladi.

